

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

**5140800 – PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA YO`NALISHI
BITIRUVCHISI ABDULLAEVA MA`MURANING**

**“O‘QITUVCHI FAOLIYATINI ILMIY ASOSDA TASHKIL
ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: p.f.d., professor T.Xasanov

Andijon – 2013

MAVZU: O‘QITUVCHI FAOLIYATINI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Kirish

1 bob. O‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishning ahamiyati

1.1. O‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari

1.2. O‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishga qo‘yiladigan talablar

2 bob. O‘qituvchi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishning mazmuni va pedagogik shart-sharoitlari

2.1. O‘qituvchi faoliyati va mehnatini ilmiy asosda tashkil etishning mazmuni, qoidalari hamda usullari

2.2. O‘qituvchi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishda pedagogik mehnatni me‘yorlashtirish

2.3. Pedagogik mehnat darajasini aniqlash, baholash va o‘qituvchida ijodkorlikni tashkil etish

Umumiy xulosalar va tavsiyalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi pedagogika va unga davr munosabati masalasini o'rganish alohida ilmiy muammoga aylanib bormoqda. Shaxs o'zining ijtimoiy faolligi va o'z sohasining mahoratli mutaxassisi sifatida millat ijtimoiy tafakkurining rivojiga o'z ta'sirini ko'rsata olmog'i lozim. Ijtimoiy faollik, ijodkorlik talaba yoshlarni ijtimoiy bilimdonlik, ijtimoiy ong asosida ijtimoiy hayotga tayyorgarlik darajasini ta'minlovchi mezon vazifasini o'taydi.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek: "... barcha jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi qirralarini mukammal ochib berish, o'quvchilarimiz, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo'nda qilib tushuntirib borish va ularni bugungi zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol bunyodkorlariga aylantirishdan iborat".

Shu o'rinda e'tirof etish kerakki, tub islohotlar davrida jamiyat hayotiga daxldorlik, millat va mamlakat taqdiriga befarq bo'lmaslik xissi shakllangan yoshlarga bo'lgan ehtiyojni hayotning o'zi toqozo etib, kelajagimiz bo'lgan yoshlarni ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalash zaruriyatini kun tartibiga olib chiqdi.

Darhaqiqat, ijtimoiy faol, ijodkor va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosiy zamini oliy ta'limgacha bo'lgan davrda, ya'ni o'quvchi yoshlarni ongli va asosli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, oliy ta'lim muassasasida kasb tarbiyasi amalga oshiriladi. Bu jarayonda yangicha fikrlash va yangicha dunyoqarash tarkib topadi. O'z navbatida, yangicha dunyoqarash dunyoviy va taraqqiyparvar mazmunga ega bo'ladi. Dunyoviylik tafakkuri ilmiylik prinsipiga tayanishi asosida o'z e'tirofini topadi. Shunga muvofiq, insonparvarlikka suyanish asosidagi ijtimoiy faollik "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilab berilgan shaxs g'oyasi hisoblanadi.

Ijtimoiy faollik, ijodkorlik ijtimoiy sog'lomlashuvga olib keladi. Millatimiz o'tmishining muayyan davridagi ijtimoiy shart-sharoitlar oqavasi hisoblangan "ahloqiy" manzaralarni saqlanib, hatto tahdid solib kelayotganligi, ya'ni loqaydlik, beg'amlik, befarqlik, e'tiborsizlik, yolg'onchilik, g'iybat, hasad, o'g'irlik, ichkilik, fohishabozlik kabilar va shu bilan bir qatorda giyoxvandlik, diniy eksteremizm hamda terrorizm global muammo bo'lib, asr vabosiga aylanib borayotgan bir sharoitda, ijtimoiy faol, ijodkor shaxs tarbiyasi alohida dolzarb pedagogik muammo sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to'g'risidagi Qarori "... yoshlar masalalarini, avvalombor ularning dolzarb muammolari yechish, jamiyatdagi o'rni va mavqeini oshirishda yo'l qo'yilayotgan sovuqqonlik, beparvolik va mas'uliyatsizlik holatlarini bartaraf etish, eng asosiysi, hayotga kirib kelayotgan avlodning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, bu borada "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatiga suyanish va tayanish vazifasi mazkur davlat tashkilotlari

faoliyatining muhim yo‘nalishi deb hisoblansin”¹ deyilgan.

Qarorda belgilanganidek, uzluksiz ta‘lim muassasalarida, jumladan, oliy ta‘lim tizimida mutaxassislik yo‘nalishlari hamda faoliyat mazmunini tahlil etish, ayniqsa bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini, ijodkorligini o‘rganish orqali ularning kasbiy faollik, ijodkorlik mas‘uliyatini nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

O‘qituvchi hamisha ijtimoiy munosabatlar muvozanatini ko‘ra bilishga, uni rivojlanish sari unday olishga qodir bo‘lmog‘i lozim. Ijtimoiy faollik, ijodkorlik har doim yangicha pedagogik idrokni talab etadi. Shunga muvofiq, o‘qituvchining ijtimoiy faolligi jamiyatni ijtimoiy sog‘lomashtirishga xizmat qiladi. Jamiyat talabi va buyurtmasi asosida bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy faolligini shakllantirish aynan pedagogik yo‘nalishida tadqiqi etilmaganligi tadqiqot muammosining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Bizning ishimizda ijtimoiy faol, ijodkor o‘qituvchi shaxsini shakllantirish bosh muammo qilib qo‘yilgan. Chunki o‘qituvchining ijtimoiy faolligi, ijodkorligi ma‘naviy-ahloqiy mazmun kasb etib, jamiyat rivojida alohida mavqega ega hisoblanadi.

Ijtimoiy faol, ijodkor o‘qituvchi mustaqil fikrlaydigan, izlanuvchan, ijodkor, kasbiy bilim hamda malakaga ega bo‘lgan mutaxassis bo‘lib, jamoada o‘z qobiliyati, insonparvarlik fazilatlarini, obro‘-e‘tibori va yuksak madaniyati bilan alohida ajralib turadi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” tomonidan qo‘yilgan vazifalarga muvofiq hamda bugungi tub islohatlar amalga oshayotgan tezkor va globallashtirish davrida mustaqil va erkin fikrlaydigan, ijodkor, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash davlat ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb vazifadir. Afsuski ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida mazkur muammoga doir ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan. Bu esa ushbu masalalarda muayyan samaradorlikka erishish yo‘lida jiddiy to‘siq bo‘layotganligini ko‘rsatmoqda.

Shunga ko‘ra yuqorida qayd etilgan holatlar mazkur ilmiy-tadqiqot ishi mavzusining **“O‘qituvchi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishning pedagogik asoslari”** deb tanlanishiga asos bo‘ldi.

Tadqiqot maqsadi: o‘qituvchi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish hamda uning yaxlit tizimini yaratish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. O‘qituvchi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish yuzasidan ilmiy-nazariy, falsafiy, pedagogik, psixologik manbalarni o‘rganish, tahlil qilish hamda umumlashtirish.

¹ Karimov. I. A. “Kamolot” Yoshlar ijtimoiy harakatini qo‘llab quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to‘g‘risidagi” Qarori.

2. O'qituvchi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishda pedagogik mehnatni me'yorlashtirish va o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishga qo'yiladigan talablarni aniqlash.

3. O'qituvchi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishning mazmuni, mavjud imkoniyatlari va pedagogik shart-sharoitlarini yoritish.

4. Mavzu yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti: o'qituvchi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: o'qituvchi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishning mazmuni, pedagogik shart-sharoitlari, mavjud imkoniyatlari va zamonaviy yondashuvlar.

Tadqiqot metodlari: adabiyotlarni o'rganish, pedagogik tahlil, qiyosiy tahlil, kuzatish, suhbat, umumlashtirish.

Tadqiqotning metodologik asoslari: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta'lim-tarbiya jarayonini sifat va samaradorlik jihatdan yanada rivojlantirish hamda takomillashtirishga qaratilgan yondashuvlari, Sharq mutafakkirlarining barkamol inson tarbiyasiga oid qarashlari, ijtimoiy faol, ijodkor shaxsni ma'naviy-kasbiy shakllantirishga qaratilgan falsafiy, psixologik, pedagogik ta'limotlar hamda mavzuga oid ilmiy-pedagogik manbalar, Hukumat qarorlari, xalq pedagogikasi manbalari, ilg'or tajribalar.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqot jarayonida ilgari surilgan fikrlardan, yondashuvlardan hamda samaradorligini ta'minlovchi tadqiqot natijalaridan pedagogik fanlar bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash, qo'llanmalar yaratish, shuningdek metodik tavsiyanomalar yaratishda, ish tajribalarini ommalashtirishda samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi va hajmi: ish kirish, 2 bob, 5 bo'lim, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat bo'lib, jami 80 sahifani tashkil qiladi.

1 BOB. O‘QITUVCHI MEHNATINI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

1.1. O‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘qituvchilik-ijodkorlik va faol izlanuvchanlikka asoslangan kasb. Pedagogikada “kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalash”, “o‘z-o‘zini boshqarish” va “o‘z-o‘zini tahlil etish” mazmun-mohiyati jihatidan ijtimoiy faollikka, ijodkorlikka yo‘naltiruvchi omillar vazifasini o‘taydi.

Ijtimoiy faollik, ijodkorlik murakkab jarayon bo‘lib, insonda birdaniga vujudga kelmaydi. Olib borilgan izlanishlarimizning ko‘rsatishicha, o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy faolligining shakllanishi uning ushbu kasbni tanlagan davriga to‘g‘ri keladi. O‘qituvchi bolaligidan yoki shu kasbni tanlagan davridan e‘tiboran kasbning mas‘uliyati, mohiyati, ayniqsa, xalq va Vatan ravnaqi yo‘lidagi o‘rnini qanchalik erta anglab yetsa, unda ijtimoiy faollik kurtaklari shunchalik tez shakllanishi ayon bo‘ldi.

Bu holatni aynan boshqa kasblar misolida ham aytish mumkin. Shundan kelib chiqib, kasbiy faoliyatida intiluvchanlik va uzluksiz ijodkorlik pozitsiyasida tura oladigan o‘qituvchiga ijtimoiy faol, ijodkor o‘qituvchi deyiladi. Pozitsiya deganda shaxsning (ayni paytda mutaxassisning) faol o‘rni, faoliyat maydoniga ega bo‘la olishi tushuniladi. Shu bilan birga, ijodkorlik serqirra ma‘no kasb etib, o‘qituvchining jamiyat rivojiga bo‘lgan munosabati ham nazarda tutiladi.

Aksariyat holda bola oilasida ota-onasiga, o‘zidan kattalarga, bog‘chada maktabgacha ta’lim tarbiyachisiga, maktabda birinchi o‘qituvchisiga albatta taqlid qila boshlaydi. Ijtimoiy faollik, ijodkorlik barkamol shaxs tarbiyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Maktab esa, o‘quvchi yoshlarni ijtimoiy hayotga yo‘naltiruvchi sahna vazifasini o‘taydi. Chunki har bir ezgulik, yaxshilik, diyonat va mehribonlikning boshlanish nuqtasi maktab bo‘ladi. “O‘qituvchi-o‘quvchi” munosabatidagi og‘zaki va yozma nutq madaniyati ijtimoiy faollik, ijodkorlik omili vazifasini o‘taydi.

Ta’lim jarayoniga interfaol metodlarning tatbiqi asosida o‘quvchi va talabalarning dars jarayonidagi faolligiga, ijodkorligiga erishish ijtimoiy faollikka yo‘naltiruvchi omil vazifasini o‘tashi mumkinligi tadqiqiy kuzatuvlar va tajriba-sinov ishlarimiz jarayonida o‘z e‘tirofini topdi.

Ma’lumki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiqui masalasida turlicha yondashuvlar mavjud. Bu holni ayrim pedagog olimlar hali zamonaviy pedagogik texnologiyalarning metodologiyasi aniq emasligida deb ko‘rsatishga urinadilar. Biz o‘z tadqiqiy izlanishlarimizda bu fikrga qo‘shilmaymiz. Chunki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning metodologik asoslari mamlakatimizda to‘liq ishlab chiqilgan va nazariy

jihatdan asoslangan. Yondashuvlar masalasiga kelsak, “texnika”, “texnologiya”, “metod”, “metodika”, “ta’lim texnologiyasi”, “pedagogik texnologiya” kabi tushunchalarning ta’riflarida ozroq farqlar ko’zga tashlansa-da, ammo maqsad va vazifaning qo’yilishida uyg’unlik va mushtaraklik mavjud. Shunday bo’lsa-da, yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, bu

Ma’naviy va ruhiy jihatdan mohiyatini anglagan holda kasb tanlashi shaxsning ijtimoiy hayotda o’z o’rnini topa olishida alohida ahamiyat kasb etishini o’quvchilarning tushunib yetganligi olib borilgan suxbat va savol-javoblarimiz mobaynida aniq bo’ldi. Qolgan 5 ta motiv ham qaysidir ma’noda ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ularning o’rnini mutlaqo inkor qilish mumkin emas.

Kuzatish, suhbat, savol-javob va so’rovnoma metodlari asosida ijtimoiy faol, ijodkorlik o’qituvchi shaxsi shakllanishining amaldagi holatini o’rganish jarayonida yana shu narsa aniqlandiki, bugungi kunda aksariyat ota-onalar o’z farzandlarini bozor iqtisodiyoti munosabatlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyot, xuquq, tibbiyot kabi kasblarga ko’proq da’vat etayotganliklari ma’lum bo’ldi. O’qituvchilik kasbi esa, yuqoridagi kasblardan ancha keyin turishi ma’lum bo’ldi.

Jamiyatimizning ma’naviy yangilanishi ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jahon hamjamiyatiga qo’shilishini ta’minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustivor mezon sifatida muhim rol o’ynaydi. Shuning uchun ham O’zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A. Karimov – inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro’yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq - atvorning andozalarini o’zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir - deb juda to’g’ri aytgan edi. Chunki xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o’tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O’zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo’lib qoldi.

Mana shu ma’noda bugungi mustaqillik sharoitida kadrlar tayyorlashning milliy modelini ro’yobga chiqarish, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim – tarbiyani ongli ravishda idrok eta oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida javobgarlik hissini yuragiga tuya oladigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutish bilan birga, ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o’tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to’la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish maqsadida 1997 yilda Oliy Majlisning IX sessiyasida «Ta’lim to’g’risida» Qonun va «Kadrlar tayyorlashning milliy

dasturi» qabul qilindi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ishlab chiqishning asosiy omillaridan biri, respublikamizning demokratik va huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyat qurish yo‘lidan izchil ilgari lab borayotganligi; davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligi qaror topganligi; milliy o‘zlikni anglashning o‘rib borishi, vatanparvarlik, o‘z vataniga iftixor tuyg‘usining shakllanayotganligi, boy milliy madaniy-tarixiy an‘analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmatning ortib borayotganligidir. Yana shu narsani alohida qayd etish joizki, endilikda O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jahondagi mavqei va obro‘ - e’tiborining tobora ortayotganligi ham mazkur islohotlarni tezlikda amalga oshirish lozimligi pedagogik zaruriyat bo‘lib qoldi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach mamlakatimiz xalqi oldida iqtisodiy va ma’naviy mustaqillikka ham erishish vazifasi kun tartibiga qo‘yildi. O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimining tarkibiy qismi sifatida, umumiy ta’lim maktablari va o‘qituvchilarining maqsadi - har bir bolada mavjud bo‘lgan qobiliyat va layoqatlarni erkin rivojlantirish, ilm asoslarini, umuminsoniy va milliy – ma’naviy, madaniy, qadriyatlarni o‘rganish, yuksak axloqiy fazilatlarni, fuqarolik burchini, milliy g‘urur tuyg‘usini o‘stirish, yoshlarni mehnat faoliyatiga, mustaqil hayot kechirishga yo‘naltirishdan iborat.

Hozirgi davr taraqqiyotidan kelib chiqsak O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya tobora rivojlanmoqda, o‘qituvchi kadrlar tayyorlash saviyasi davlatimiz ko‘rsatmalariga muvofiq ravishda ortib bormoqda.

Pedagoglik alohida kasb bo‘lib, u har bir mutaxassisdan yuksak darajada g‘oyaviy-siyosiy yetuklikni intellektual barkamollikni va ensiklopedik ma’lumotlilikni, insoniy aql va ezigulik urug‘ini tarqatuvchi dehqon va bog‘bon sifatida olijanob shaxs bo‘lishini taqozo etadi. Hozirgi zamon pedagogikasi fani har bir o‘qituvchidan kasbiy jihatdan yetuk bo‘lishni va pedagogik mahorat va qobiliyatni, mahoratni to‘liq egallagan bo‘lishlikni talab etmoqda. Pedagogik mahoratga va qobiliyatga, texnikaga ega bo‘lmasdan turib haqiqiy o‘qituvchi bo‘lish mumkin emas degan tushuncha kelib chiqadi. o‘zida pedagogik mahoratni va qobiliyatni umumlashtirgan inson bolalarni seva oladi, ular uchun jonini fido qila oladi, ularga haqiqiy ustoz bo‘la oladi.

Ta’lim-tarbiyada o‘qituvchi-murabbiylarning pedagogik mahoratini mukammal egallashi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Shu bois jahonning barcha oliy o‘quv yurtlarida bu masalaga alohida yondashuv amalga oshirilmoqda.

O‘qituvchilik sharaflilik, lekin juda murakkab kasbdir. Yaxshi o‘qituvchi bo‘lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o‘ziga etarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o‘qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun - qoidalar, umumlashtirilgan metodik g‘oyalar

bayon etiladi.

Shuning uchun ham mustaqil O'zbekiston davlatining umumiy ta'lim maktabida ishlaydigan o'qituvchi:

- pedagogik faoliyatiga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;
- milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol;
- O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tiqodli fuqaro;
- ixtisosga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek, nazariy ilmlarni mukammal egallagan;
- o'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko'radigan, har bir o'quvchisi ulg'ayib yaxshi odam bo'lishiga chin ko'ngildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko'maklashadigan;
- erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo'lmog'i darkor.

Pedagogik, o'qituvchilik faoliyatini, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarish, ota-onalar va bolalarning izzat-hurmatiga sazovor bo'lish uchun ham kishida bu ishga layoqat, qobiliyat, qiziqish bo'lmog'i lozim. Boshqa kasblar kabi o'qituvchilik kasbiga ham yoshlar orasida pedagogik faoliyatga layoqatli, bolalar bilan til topib muomala qila oladigan, ilmiy kishilarni tanlab olish kerak.

Pedagogik kasbini tanlagan kishi avvalo sog'lom bo'lishi, so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffuz qila olishi, asablari joyida, vazmin bo'lishi darkor. Shuningdek, bolalarni yoqtirishi, ular bilan ishlashga mayli, boshqalar bilan muloqat qila olishi, xushmuomalaligiga, kuzatuvchanligi, keng fikrlay olishi, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanligi ham kishining pedagogik ishga yaroqligini ko'rsatadi. Bu sifatlar kishida bor- yo'qligini tibbiyot xodimlari, ruhshunos, pedagoglar og'zaki va yozma savol - javoblar yordamida aniqlay oladi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lim-tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. Maktab o'qituvchilarining faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan.

"Yangi tamoyillar asosida rivojlanayotgan ta'lim tizimi yosh avlodni barkamol ma'naviy yetuk inson sifatida shakllantirishga qaratilgandir" – deyiladi Kadrlar tayyorlash milliy dasturida.

Umumiy ta'lim, jumladan, boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarni o'rta ta'lim bosqichiga tayyorlash bilan birga ularda o'qish, mehnat qilish, tashabbus ko'rsatish, mustaqil faoliyatni egallash kabi sifatlarni taraqqiy ettirish kabilar ham amalga oshirilmoqda.

Ta'lim tizimi, shaxsni shakllantirish uchun, davlat standarti talablari asosida hamda

ta'lim darajasida kadrlar yetishtirish uchun avvalo o'qituvchilar, murabbiylar shaxsini har tomonlama mukammal bo'lishini talab qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisining ma'suliyati katta, u umumiy ta'lim tizimining asosini, poydevorini yaratuvchi shaxsdir.

Barcha yaxshi ishlar, bolani ezgulikka yetaklash, o'qituvchining pedagogik mahoratiga ko'p jihatdan bog'liq. Buyuk alloma inson ruhiyatining muhandisi Abu Ali Ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" asarida shunday fikr bayon qiladi:

"O'qituvchining barcha xatti - harakatlari ezgulikdan iborat bo'lmog'i lozim".

Ezgulik avvalo bola qalbiga yo'l topishdan boshlanadi. U bilan hamkor, hamnafas bo'lish, beg'ubor qalb egasini hurmat qilish, hohish - istaklariga befarq bo'lmaslik, bir so'z bilan aytganda bolajon bo'lish zarur.

Yangilanayotgan boshlang'ich ta'limda davlat va jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar ta'lim sohalari bo'yicha o'zaro muvofiqlik va mutanosiblik to'la ta'minlanishi lozim.

Bola tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashini shakllantirishda yangi zamonaviy bilimlarni keng ko'lamli olib borilishi kerak.

Chunki bolaning bilish, yangiliklarni qabul qilish doirasi keng, undan to'g'ri samarali foydalanish esa o'qituvchilarning, tarbiyachilarning vazifasidir.

Respublikamiz hukumati xalq ta'limi sohasida o'rta qo'yoyatgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tish sharoitida ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan.

O'qituvchi pedagogik mahoratini oshirish uchun o'z-ustida ishlashi, tinmay izlanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ish olib borilishi lozim.

Yangi metodik mahorat, bu yangi pedagogik texnologiya deganidir. Pedagogik texnologiya pedagogik mahorat to'g'risidagi fan. Shunga ko'ra pedagogik texnologiyada o'qituvchining metodik mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o'zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog'liq xususiy nazariyasiga ega:

Birinchidan, o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo'naltirilgan;

Ikkinchidan, o'qitishning axborot vositalaridan va didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

1. Mahoratli o'qituvchi davlat buyurtmasiga mos keladigan ta'lim - tarbiya maqsadini aniq va ravshan belgilashi kerakki, natijada ma'lum vaqt ichida unga erishishni ta'minlaydigan didaktik jarayonni tuzish va joriy etish to'g'risida xulosa qilishi mumkin bo'lsin.

2. O'qituvchi pedagogik tizimda belgilangan maqsadga to'g'ri keladigan o'quv-tarbiyaviy jarayon mazmunini o'quv dasturi bo'yicha chuqur egallashi, muntazam ravishda o'z pedagogik mahoratni ilmiy–texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda mustaqil ravishda kengaytirib borish lozim.

“O'qituvchi o'z bilim malakasini oshirish usullarini puxta egallamog'i, mustaqil ishlashini o'rganmog'i lozim” – degan edi A. Jomiy.

O'z bilimlarini mustaqil oshirish uchun quyidagi bo'limlardan iborat individual reja tuzib olishlari tavsiya etiladi.

1. G'oyaviy - siyosiy saviyani oshirish.
2. Ilmiy - nazariy bilimni oshirish.
3. Metodik bilim va mahoratni oshirish.
4. Pedagogik va psixologik nazariyani yanada puxta o'rganish.

O'qituvchining pedagogik mahoratini doimiy oshirib borish va uni rivojlantirishda maktabdagi metod birlashmalar hamda kabinetlarning xizmati katta. Metod birlashmalarda o'qituvchilar fikr almashadilar: o'zaro kuzatilgan darslar muhokama qilinadi. Yosh va tajribasiz o'qituvchilarga maslahatlar uyushtiriladi, ilg'or tajribalarni keng ommalashtiradilar.

Pedagogik ijodkorlik manbai - bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondoshishni, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishni tushunamiz.

Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan ish shakli va usullari, uslub va vositalaridir. Ular vositasida o'quv-tarbiyaviy ishlarda eng yuqori natijalarga erishiladi.

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o'quv tarbiya jarayoniga sifatli o'zgarishlar kiritadi, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishdagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi.

Fan-texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishi va nihoyat o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi avvalo tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy tadqiqot ishlari olib borishi davomida omillarni to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan juda muhim fazilatlarni egallaydi.

Maktabda pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tahlil qilish muammosi ko'pincha darsda vaqtdan unumli foydalanish, sinfdan tashqari tadbirlardan va o'qituvchi tarbiyachilarning

ijtimoiy topshiriqlarini tartibga solishdan iborat deb qaraladi.

Pedagogik mahoratni ilmiy asosda tashkil etish mazmuni ancha keng tushuncha bo'lib, unga avvalo, xodimlarning malakasi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularni to'g'ri tanlash va joy-joyiga qo'yish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish qo'llanilayotgan usullar tizimini uzluksiz takomillashtirish va ta'lim-tarbiya jarayoniga texnika vositalarini joriy etish masalalari kiradi.

Ta'lim metodlaridan foydalanishning samaradorligi va muvaffaqiyati ular o'quvchilar mustaqilligi va ijodiy faolligini rivojlantirishga qanchalik yordam berishiga bog'liq. o'qituvchi o'quvchilarga mustaqillik ko'rsatish uchun sharoit yaratsa, o'quvchilar bilimlarini bamisoli o'zlari olayotgandek tuyulsa, mazkur metod samarali bo'ladi.

Ta'lim metodlarida o'qituvchining qiyofasi, uning dunyoqarashi, uning psixologik-pedagogik, metodik va maxsus ilmiy tayyorgarlik namoyon bo'ladi. Xuddi ana shu omillar ta'lim metodlarini samaradorligini belgilaydi. Muayyan metod yaxshi tayyorgarligi bo'lgan o'qituvchida o'z afzalliklarini namoyon qilsa, tayyorgarligi zaif bo'lgan o'qituvchida shu metodning o'zi salbiy jihatlarini namoyon qiladi. Shu sababli ta'lim metodlarini samaradorligini oshirish uchun o'qituvchining tayyorgarlik darajasi prinsipial ahamiyatga ega.

O'qituvchi ijodiy pedagogik faoliyati va o'quvchilar ijodiy faoliyatining ta'lim metodida o'z ma'lumoti, madaniyati, kasbiy tayyorgarligi darajasini qanchalik aks ettirishiga bog'liq. Bunda ijodiyot uchun qancha imkoniyatlar bor.

Bilim faoliyati xususiyatlarini, uning ziddiyatlarini o'qituvchining anglab olish izlanish harakteridagi o'quv vaziyatini shakllantirishi va ularni hal etish jarayonini boshqarish imkonini beradi.

Ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasi ta'lim metodlarini takomillashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday tajribani umumlashtirish va yoyish-o'quv jarayoni sifatini oshirishning muhim shartidir.

O'qituvchilar mehnat faoliyati jarayonida o'z ishlarining chinakam ustalariga aylanadilar. Sog'lom fikr yurituvchi har bir kishi mahoratli tarbiyachi bo'la oladi, mahoratga tajriba hamda fikr yuritish orqali erishiladi.

Pedagogik faoliyatning nazariy asosi kasbga oid bilimlardir. U faqatgina o'z predmetini emas, balki pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarini o'zlashtirishi va ularni muntazam to'ldirib borishi lozim. Ilmiy psixologik-pedagogik bilimlar sistemasining mavjudligi o'qituvchiga faqat o'z sinfini hamda ayrim o'quvchilarni o'rganish va ularning to'g'ri harakteristikasini tuzishgina emas, balki o'quvchilar jamoasi bilan va uning har bir a'zosining rivojlanishi istiqbollarini ham belgilash imkonini beradi. o'qituvchi-tarbiyachining amaliy faoliyati bu ko'plab pedagogik vazifalarni beto'xtov hal qilishdir. o'zining kasbga doir bilimlar

to'plamidan ijodiy foydalangan o'qituvchigina ularni muvaffaqiyatli hal etishi mumkin.

Pedagogik odobini egallash o'qituvchidan o'z ustida puxta, o'ylab ishlashni talab qiladi. O'qituvchi o'z xatti-harakatini doimo nazorat qilishi, qarashi, ishorasi bilan o'quvchilar xatti - harakatiga o'z munosabatini bildirib bilish kerak. Ya'ni pedagoglik odobi o'qituvchida o'z tuyg'ularini ifoda qilishning sof tashqi malakalari mavjud bo'lishini ham nazarda tutadi.

Malakalarning bunday majmui pedagoglik mahoratning tarkibiy qismi bo'lib, u pedagoglik texnikasi deb ataladi. O'qituvchining pedagoglik mahorati uning intellekti va madaniyatiga "Umumta'lim va hunar maktabini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari"da jiddiy e'tibor beriladi va bu o'rinda o'qituvchi o'z pedagoglik mahoratini, kasbga doir vazifalarni hal qilish qanchalik qo'lidan kelishini doimo tekshirib borishi bola ongi hamda qalbiga eng yaxshi yo'llarni axtarishi kerakligi ta'kidlab o'tiladi. O'quvchilarga o'z xatti-harakati, turmush tarzi, o'z qiyofasi va bilimi bilan ta'sir qiladi. Uning madaniyati, haqgo'yliigi va ma'naviy sifatlari o'quvchilar tomonidan har xil tarzda qabul qilinadi. Shuning uchun ham o'qituvchi u qaysi fanni olib borishidan qat'i nazar, o'quvchilar uchun ma'naviylik murabbiysi, taqlid uchun yuksak namuna, o'rnak bo'lishi kerak.

Hozirgi kundagi asosiy vazifa tayyorlanayotgan mutaxassislarning sifatini yanada yaxshilashga, ularni ijodiy fikrlovchi va tashabbuskor mutaxassislar qilib tarbiyalashga erishishdan iboratdir. Bu o'z navbatida o'quvchilarga bilim berishni tubdan yaxshilash va ularga zamon talablari darajasida tarbiya berishni talab qiladi.

O'quvchilar maktab dargoxiga qadam qo'yishlari bilan o'zlari qiziqqan fanlar va shu fanlarning sirlarini sabr-toqat va matonat bilan o'zlashtiradilar. Bunda sinf xonasida o'tiladigan dars va mashg'ulotlarda faollik ko'rsatish hamda mustaqil ishlashni to'g'ri uyushtira olish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. O'quvchi uchun har bir daqiqa g'animat.

Maktabning boshlang'ich sinflarida o'quv-tarbiya ishlaridagi asosiy kamchilik sifatida ulgurmovchilik ko'zga tashlanadi. Hamma ishni, jumladan o'quv jarayonini ham ilmiy asosda tashkil etish murakkab bir jarayon bo'lib, uni amalga to'la oshirish uchun fan va texnikadagi so'nggi yangiliklar bilan muntazam ravishda tanishib borish, ishlab chiqarish, madaniyat, san'at va ularning kelajak taraqqiyoti bilan bevosita qiziqish, o'quv metodik va texnika vositalaridan foydalanishni takomillashtirib borish, o'quv jarayonini to'g'ri rejalashtirish, ilmiy ishlarni rivojlantirib borish, ilmiy-pedagogik mutaxassislarning malakasini oshirib borish, mutaxassislardan o'rinli foydalanish, o'quvchilarning ish sharoiti, dam olish va har xil jamoat ishlariga ishtirokini mukammallashtirib borish kabilarni o'z ichiga oladi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da oliy va o'rta maxsus ta'limi tizimini yanada rivojlantirish, tayyorlanayotgan mutaxassislar sifatini yaxshilash, ularning ishlab chiqarish bilan aloqasini mustahkamlash, eng ilg'or texnika va texnologiyani o'qitish jarayoni va ilmiy-tadqiqot

ishlariga joriy etish masalasi ko'ndalang qilib qo'yiladi.

Bu amaldagi mavjud an'anaviy o'qish usullaridan voz kechish kerak, degan ma'noni bermaydi. Aksincha, maktablardagi ayrim tajribali o'qituvchilarning ishlariga tayangan holda, o'quv jarayonini boshqarish sohalaridagi tadbirlarni takomillashtirib va mukammallashtirib borishni ko'zda tutadi. O'quv jarayonini boshqarishning samaradorligini uning qanchalik to'g'ri va oqilona rejalashtirilganligi bilan o'lchanadi. Buni to'g'ri hal etishda o'qish jarayonining grafik jadvallari bir muncha yengillik tug'dirishi mumkin.

O'quv jarayonini muvaffaqiyatli va serunum tashkil etishda o'qituvchi va o'quvchilarning mehnat faoliyatlarini chuqur o'rganish muhim rol o'ynaydi.

O'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etishda uning psixologik-fiziologik tomonini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'zlashtirishda talabalarning eshitish, ko'rish, fikrlash xususiyatlarining qay darajada ekanligi, bunga muvofiq ravishda sarf bo'ladigan mehnat alohida hisobga olinishi kerak. Shuning uchun o'quv rejasini tuzishda va ulardagi fanlarni dars jadvallariga joylashtirishda har tomonlama o'ylab ish yuritish maqsadga muvofiqdir. O'qitish jarayonining fiziologik asosi sifatida reflekslar va signallar sistemalari haqidagi, oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limotdan foydalaniladi. Oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limotga ko'ra, kishida ruhiy o'zgarish va tassurot tashqi muhit natijasida yuz beradi va ichki faoliyat bilan o'zaro bog'liq bo'ladi. Fiziologik va ruxiy jihatdan o'qitish nazariyasining asosi oliy maktabda o'qitish jarayoni uchun ham asos qilib olinadi hamda refleks va signallarga oid yangi tekshirishlar asosida to'ldirib boriladi.

Reflekslar shartli va shartsiz deb ikki turga bo'linadi. Shartli refleks odam va xayvonlarga xosdir. Ularda doimiy ravishda ta'sir va javob reaksiyasi mavjud bo'ladi. Shartli refleks tashqi muhit ta'siri bilan yuz bergan o'zgarishlarga moslashish asosida paydo bo'ladi.

Shartsiz refleks bilan shartli refleks o'zaro bog'liq bo'lib, shartli reflekslar shartsiz reflekslar asosida paydo bo'ladi. Signal sistemalari ikki qismdan iboratdir: birinchi signal sistemasi kishining ko'rish, eshitish, sezish, idrok etish va boshqa shartli qabul qilish a'zolarida aks etadi.

Kishining ruxiy faoliyatida ikkinchi signal sistemasi muhim rol o'ynaydi. Chunki u nutq va yozuv bilan bog'liqdir. Ikkinchi signal sistemasi birinchi signal sistemasi bilan chambarchas bog'liq va undan kelib chiqadi. Birinchi signal sistemasi borliqning kishi organlariga ta'siri orqali hosil bo'ladi. Masalan, ko'rish va eshitish natijasida miyamizda hosil bo'luvchi obrazlar birinchi signal sistemasidir. So'ngra ma'noli qismlar yuzaga keladi. Bu esa ikkinchi signal sistemasi hisoblanadi. Jumladan "stol" deganda, to'rt tovushdan iborat so'zni, to'rt oyoqli o'quv qurolini, ro'zg'or yoki lobarotoriya stolini tushunamiz. Biz stolga qaraymiz va u haqda tafakkur yuritamiz. Shu yo'l orqali bizning ongimizda ikkinchi signal sistemasi hosil bo'zladi. Ikkinchi

signal sistemasi kishilarning bir-birini tushunish va aloqa bog'lashlariga imkon beruvchi faktordir. Shuningdek "oliy tahlil" va "oliy birlashtirish" singari tafakkur shakllarini yuzaga keltiradi. Natijada fan bilan shug'ullanish va savol chiqarish imkoniyati vujudga keladi.

I.N.Pavlov ikkinchi signal sistemasini "kishi xulq-atvorining regulyatori" deb baholaydi. O'quv jarayonida so'zning, nutqning va tilning ma'nosi va ahamiyati g'oyat kattadir. O'quvchilar so'zlar, belgilar va formulalar yordamida murakkab ilmiy tushunchalarni o'rganadilar. Shunday ekan o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish hozirgi davrda eng muhim va dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

1.2. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishga qo'yiladigan talablar

O'qituvchilik iste'dodi, ixtisosligiga layoqati to'g'risida gap borganda muallimlarni shartli ravishda uch toifaga ajratamiz. Izlanuvchan, ijodkor o'qituvchilar birinchi toifani tashkil etsa, ikkinchi toifaga o'z vazifasini nimadan boshlashni bilmay qiynalayotgan o'qituvchilar kiradi. Ta'lim va tarbiya ishiga tasodifan kirib qolgan o'qituvchilar esa uchinchi toifa doirasida faoliyat ko'rsatadilar.

Maktab xalq ta'limi ishida birinchi toifaga kiruvchi, to'la ma'nodagi ijodkor muallimlar xal qiluvchi kuch hisoblanadilar.

Darsning bilim berishdagi rolini, uning mas'uliyatini sezgan har bir ilg'or pedagog mashg'ulotga puxta tayyorlanib, uni mazmunan boyitadi, tinmay izlanib, o'qitishning yangi usullarini yaratib, maktab ta'limida qo'llashga aytiladi.

Shu yo'l bilan qirq besh daqiqa darsni yaxshi bir asar yanglig' o'z o'quvchilari ongiga singdiradi. Bunday fidoyi ziyobaxsh qalb egalari shaxsiy ijodiy jarayonini boyitishga munosib xissa qo'shadilar. Shu tariqa har bir ijodkor o'qituvchi o'zining haqiqiy muallimlik mahoratini yaratadi.

O'qituvchi orttirgan tajribasini dars berish jarayonida qo'llash bilan birga yuksak pedagogik madaniyatini xam yorqin namoyon eta bilishi kerak. Ammo ba'zi bir o'qituvchilarda tadbirkorlik, siyosiy bilim, munozara olib borish madaniyati yetishmaydi. Buning o'rniga xaddan tashqari xissiyotga berilishi, toqatsizlik xollari yuz bermoqda. Jamiyatda madaniyat bo'lmas ekan axloqiylik ham bo'lmaydi. Odob, madaniyat bo'lmasa ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy qonunlar amal qilmaydi, zamonaviy ilm-fan, xususan ta'lim rivoj topmaydi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishni pedagogik ta'limning tarkibiy qismiga aylantirishda o'qituvchi ma'naviy-axloqiy qiyofasi yetakchi o'rin tutadi. Binobarin, o'qituvchi faoliyatining ana shu yo'nalishi uning pedagogik bilimi va mahorati bilan uyg'unlashib borishi lozim. Shu sababli o'qituvchilarni tayyorlash mazmuni ularning professional madaniyati bilan

uzviy bog'liqdir. O'qituvchi uchun zarur bo'lgan narsa bu pedagogik madaniyatdir. Mazkur tushuncha mohiyat-e'tibori bilan o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik aloqasini izoxlaydi. Shunga ko'ra ta'limni insonparvarlashtirish masalasi mazkur masalada hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar shaxslararo muloqot va munosabatlarni, o'zaro hurmat va ishonch hamkorligini yo'lga qo'yishga erishildi. Garchi bu jarayon oson yo'l bo'lib hisoblansa ham, biroq ana shu usul asosida ish ko'rgan o'qituvchi o'zi hohlamagan xolda ta'lim mazmunini va sifatini ilmga moslashtirishga intildi. Bunda o'qituvchi va o'quvchilarni didaktik hamkorligi ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Dars davomida ta'lim mazmuni, shakli orqali, axloqiy sifatlar shakllanib boradi.

O'qish jarayoni tashkiliy va metodik shakllardangina iborat bo'lib qolmasdan, u keng va ko'p qirralidir: o'quv dasturlari, dars jadvallari, sinovlar, maslahatlar, imtixonlar, turli xil tajriba va boshqa shu kabilarni qamrab oladi. Uning har bir bo'lagi o'z mazmuni va yo'nalishiga egadir.

Hozirgi vaqtda maktab oldida shakl va mazmunni birga qo'shib borishning samarali yo'llarini izlab topish va uni o'qish jarayoniga joriy qilish vazifasi turibdi. Ana shunday imkoniyatlardan biri o'qitish jarayonini ilmiy asosda tashkil etishdan iborat bo'lib, u g'oyaviy jihatdan mustahkam, har tomonlama taraqqiy etgan, mustaqil fikr yurita oladigan yuqori malakali mutaxassislarni yetkazish uchun xizmat qilishi lozim.

O'quv rejasi davlat xujjati bo'lib, o'quv ishlari tartibi, mazmuni, shakllari (turlarini) aniq belgilab berishda, shuningdek, talabalarining bilimni nazorat qilish hamda baholashda alohida ahamiyatga egadir. O'quv rejasida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, imtixon sessiyalari, diplom ishlari, ta'til singarilarni olib borish va o'tkazishning muddatlari aniq ko'rsatiladi.

O'quv rejalari hamma o'quv yurtlari uchun bir xilda emas, chunki ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'quv muddatini belgilashda hisobga olinadi. Masalan, ayrim oliy maktablar to'rt yil, ba'zilar besh yil va olti yilga mo'ljallangandir. Shunga muvofiq o'qiladigan fanlar, imtixonlar, sinovlar va kurs ishlari miqdori semestrlar bo'yicha aniq belgilab chiqiladi.

Har bir talaba uchun darsxonada o'tiladigan bir kunlik ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlar uchun 10 soat vaqt mezon hisoblanadi. Shanba kuni bundan kamroq bo'lishi mumkin. Demak, bir xaftada o'rtacha 50-56 soat vaqt sarf etilishi lozim. 1-2-kurslarda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga 5 soat, mustaqil tayyorlanishga 5 soat, yuqori kurslarda esa 4-6 soatga to'g'ri kelishi tabiiy xoldir. Bir kunda o'tilgan darslarning dastlabki soatlari serunum, sermahsul o'quv soatlari hisoblanadi.

Har bir fakultet uchun o'quv rejalari tuziladi. O'quv rejasida 4 yil mobaynida o'qiladigan fanlar bo'yicha ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, maxsus kurslar, maxsus seminarlar, sinovlar, kurs va diplom ishlari, pedagogik va ishlab chiqarish tajribalari, imtixon va sinovlar muntazam

ravishda aniqlab beriladi. O'quv rejasi tuzib bo'lingach muxokama etiladi va tasdiqlanadi. Tasdiqlangan o'quv rejasi uzoq yillargacha amalda qo'llanib boriladi. Lekin o'qish jarayonida ba'zi o'zgartirishlar kiritish mumkin va bu o'zgartirishlar kafedra va fakultetning tasiyasi bilan universitet ilmiy kengashida tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi.

O'quv rejasidagi har bir fan o'zining o'quv dasturiga ega bo'ladi. Dasturlarni olimlar va tajriba o'tkazuvchi o'qituvchilar tuzishi mumkin. Dasturlar ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni olib boruvchi olim-pedagoglar tomonidan tayyorlangani ma'qul. Chunki o'quv rejasining mohiyatini faqat auditoriya bilan muloqotda bo'lgan mutaxassisgina to'la ochib bera olishi mumkin.

Dastur qisqagina so'z bilan boshlanib (so'z boshi dasturni tuzuvchi yoki muharrir tomonidan yoziladi), so'ngra bir necha bob yoki bo'limlarga ajraladi. Har bir bob yoki bo'limda alohida o'tiladigan mavzular va kichik mavzular berilib, oxirida zaruriy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltiriladi.

Dasturda fanlar bob, qism va bo'limlarga ajratilib, har bir mavzu bo'limlarga bo'linadi, har bir bob, bo'lim yoki qismdan so'ng foydalanishi lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxatidan ushbu fanga bevosita taalluqli adabiyotlar alfavit tartibi da keltiriladi. Bu o'qituvchining ma'ruzalarga va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishni osonlashtiradi. Shuni alohida qayd etish lozimki, dasturda beriladigan adabiyotlar ham o'qituvchi, ham talabaga mo'ljallangan. "Mutaxassislikka kirish", "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "O'zbek dialektologiyasi", "Siyosiy iqtisod" kabilar shular jumlasidandir..

Shuning uchun o'qituvchilar dasturdagi adabiyotlarning bir qisminigina o'quvchilarga mustaqil ishlash uchun tasiya etishlari lozim.

Dars va ayrim mashg'ulotlar jadvali bir semestrda o'tiladigan fanlar yuzasidan tuziladi. Unda yarim yillik soatlar hisobga olinib, xaftalarga bo'linadi. Shuning uchun, har bir semestr bo'yicha o'tilishi lozim bo'lgan soatlarni muntazam ravishda jadvalga joylashtirish va o'tish tabiiy xol hisoblanadi. Dekanat dars jadvalining to'g'ri tuzilishiga e'tibor berishi lozim. Qulay variantda tuzilgan dars jadvali o'z navbatida o'qituvchining ham, talabalarining ham vaqtini tejaydi va ishini osonlashtiradi.

Mavjud o'quv dasturlari asosida o'qituvchi o'z ish dasturini tuzadi. Unda kerakli materiallar, adabiyotlar va mashg'ulotlarning xajmi (soatlari) aniq ko'rsatiladi va u detallashtiriladi. Shuningdek ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar alohida ko'rsatiladi. Adabiyotlarning bir qismi mustaqil ishlash uchun tavsiya etiladi.

Oliy o'quv yurtlarida o'qitish jarayonida ta'lim berishning turli shakl va metodlaridan foydalaniladi. Ta'limning asosiy shakllari ma'ruza va seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, maslahat va kollokviumlar, kurs va diplom ishlari hisoblanadi. Bundan tashqari

talabalarning ilmiy jamiyati yo'li bilan o'qituvchilar rahbarligida, kafedra va laboratoriyalar qoshida talabalar ilmiy konferensiyalariga ma'ruzalar tayyorlash va unda ishtirok etish yo'li bilan ham chuqur bilim beriladi.

Dars o'qitish jarayonining asosiy shaklidir. O'qitish jarayoni shakllari ichida dars eng asosiysi hisoblanadi. U ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan ishdir. Dars o'tish uchun o'qituvchi malakali bo'lishi lozim, chunki boshlang'ich sinfni o'qitish o'qituvchidan katta mahorat talab etadi. Har bir dars ishlanmasini tayyorlash esa haqiqiy ilmiy ishni eslatadi.

Dars vaqtida ham, turli to'garaklar jarayonida ham asosiy e'tibor o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishini rivojlantirish, bilim va malakasini oshirishga qaratilgan bo'ladi. Dars sinfxonada olib boriladigan mashg'ulotlar ichida eng ko'p qo'llaniladigan usul hisoblanadi. Darsni yo'nalishini belgilashda o'qituvchi asosiy rolni o'ynaydi.

Dars usulidan asosan maktablarda foydalaniladi va u o'qitish jarayonining muhim qismini tashkil etadi. Lekin hozirgi davrga kelib yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tishning natijasi samaraliroq bo'lib boryapti. Shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalar umumiy o'rta ta'lim maktablarning yuqori sinflarida o'quvchilarga yangi axborot berishda qo'l kelmoqda. Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan mavzularni bayon etish darslik, qo'llanmalar va boshqa manbalardagi ma'lumotlarni qayta bayon qilib berishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki o'qituvchining aniq bir soha bo'yicha shaxsiy ilmiy-pedagogik, ijodiy izlanishlarini ham o'zida jamlashi lozim. Haqiqiy o'qituvchi darsni shunchaki topshiriq deb qaramasdan, balki muntazam ravishda unga tayyorlanib borishi, dars mavzusini qayta ishlab, to'ldirib va mukammallashtirishi lozim. Bunda har bir o'qituvchining o'z amaliy qarashlari, materiallarga shaxsiy munosabatlari, ilmiy umumlashtirmalari bo'lishi shart. Buning uchun adabiyotlar tanlash, ulardan o'rinli foydalana bilish, matbuotda paydo bo'layotgan yangi adabiyotlarni yetarli hisobga olib borish talab etiladi.

Har bir o'qituvchi mashg'ulotga tayyorlanishda ushbu mavzuga taalluqli bo'lgan ko'pgina materiallarni qamrab olishga harakat qilishi lozim. Har qanday mashg'ulotning nazariy asoslarini esa milliy g'oya va mafkuramizga oid asarlar tashkil etadi. So'ngra har bir fanning darslik va qo'llanmalar, monografiya va ilmiy maqolalar, jurnal va gazetalar materiallari, tarixiy yozma yodgorliklar va badiiy asarlar, radio va televideniya kabi aniq materiallardan foydalaniladi. Bu materiallarning hammasi tartibga solinib, ma'lum reja asosida yozib chiqiladi.

Mashg'ulot jarayonida ma'ruza, hikoya, suhbat, munozara va ommaviy muxokamalardan foydalaniladi. Bularning ayrimlari yozma usulda ifoda etiladi. Buning uchun o'qituvchida reja va dars bayonnomasi bo'lishi kerak. Ayniqsa, ma'ruzada ishlatiladigan izohlar, ko'chirmalar, ma'lumotlar, misollar uchun yozma ravishda aloxida ko'rgazmalar tayyorlangan bo'ladi.

Mavzu materiallarini va to'laqonli mashg'ulotning o'zini tayyorlashda yangi terminlarni, tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarni va umuman mavzuga tegishli bo'lgan materiallarni qayta-qayta o'qib olish, turli manbalarni diqqat bilan ko'zdan kechirib chiqish foydalidir.

Binobarin, mashg'ulotga tayyorlanishda kitob, jurnal va boshqa materiallarni pala-partish o'qish, uning mavxum joylarini e'tiborsiz qoldirib, notanish so'zlar, noaniq atamalar va mavxum iboralarni aniqlamasdan tashlab ketish materiallarni o'zlashtirib olishga xalaqit beradi va anglashilmovchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Sinfda o'quvchilarga yetkaziladigan o'quv materiallarining yo'nalishi va ularni o'quvchilar qabul qilib olishi turlicha harakterda bo'ladi. Bu so'zsiz o'quvchilarning umumiy bilimi, mashqi, ularga ta'lim bergan o'qituvchining mahoratiga bog'liqdir. Chunki o'qituvchi oliy maktab bilimini olgan va o'qituvchilik mahoratini egallagan bo'ladi.

Dars yoki mashg'ulotda aytilgan materiallarni tushunish va qabul qilib olishining ma'lum tartibdagi mezonlari bo'ladi. Quyidagicha o'rtacha mezon belgilash mumkin; bir minutda 1-sinfda 20-25 so'z, 2-sinfda 25-30 so'z, 3-sinfda 30-35 so'z, 4-10 sinflarda 35-50 so'z, kasb-xunar kollejlarda 40-45 so'z, o'rta maxsus bilim yurtlarida 50-55 so'z, oliy o'quv yurtlarining 1 kurslarida 50-55 so'z, 2-3 kurslarda 60-65 so'z, yuqori kurslarda 75-85 so'z tushunib olinadi va qabul qilinadi. Bu me'yor o'z navbatida o'qituvchining mashg'ulot paytidagi mahorati va nutq tezligi bilan harakterlanadi. Bunday tezlik past sur'atda minutiga 40-50 so'z, o'rtacha xolatda 60-80 so'z, yuqori tezlikda esa 100-110 so'z talaffuz etiladi va o'quvchilarga yetkaziladi.

Demak, o'quvchilarning tushunishi, qabul qilib olishi va mashg'ulotni yozib olishga ulgurish jarayoni o'qituvchining o'qishdagi mahorati, malakasi, tezlik va nutq madaniyatiga bog'liqdir.

Dars 45 minutdan iborat bo'lib, orada 5 minutlik tanaffus beriladi. Umumiy qoidaga muvofiq o'qituvchi mavzuning nomini e'lon qiladi va u qanday masalalarni qamrab olishini aytadi. Har bir mavzu tushuntirib bo'lingach o'quvchilar bilan savol-javoblar o'tkaziladi, tushunilmay qolgan masalalar oydinlashtiriladi. Har bir mavzuning oxirida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati beriladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi faol, ijodiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatga tayyor bo'lishi kerak. Ma'lumki, bu faoliyat respublikamiz hayotidagi yangi hodisalar, taraqqiyot, shakllanishni ta'minlaydi, bu esa har bir insonning ma'naviy ta'limiy ehtiyojlarini qondirish uchun aniq shart-sharoitlar yaratishga qaratilgandir.

O'qituvchi respublikamiz ijtimoiy hayotidagi muammolar va hozirgi jarayonlarga, bu jarayonlardagi o'z kasbiy faoliyat o'rni va qiymatiga, jahon ijtimoiy taraqqiyotidagi ulkan muammolar va yo'nalishlariga to'laqonli yondoshuv asosida baho bera olishi, dialektik ravishda fikrlay olishi, o'z nuqtai-nazarini dalil-isbotlar yordamida himoya qila bilishi kerak. U

o'quvchilar bilan olib boriladigan tashkiliy va tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda jamoa, kasbiy va ijtimoiy faoliyat ko'nikmalariga ega bo'lishi, mohirona qarorlar qabul qila olishi, bu qarorlarning ijtimoiy oqibatlari va ahloqiy talablarini hisobga olib bilishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ona tilini chuqur va to'la bilishi lozim, rivojlangan nutq madaniyatiga ega bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida xorijiy mamlakatlar ish tajribalarini o'rganish va eng yaxshilaridan foydalanish uchun o'z xalqining etnik madaniyati va psixologiyasi, o'tmish ajdodlar tomonidan ishlab chiqilgan xalq ahloq-odobi asoslarini, u yoki bu milliy madaniyatning o'ziga xos tomonlarini bilishi, musiqiy va adabiy xalq og'zaki ijodidan xabardor bo'lishi kerak. Shuningdek, u o'zini ma'naviy va jismoniy jihatdan muntazam ravishda takomillashtirib borishi lozim.

O'qituvchi shaxsiyati uning pedagogik faoliyati talablari va kasbiy pedagogik yo'nalganligi bilan harakterlanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan quyidagi kasbiy fazilatlar zarur: bolaga shaxs sifatida munosabatda bo'lish, uning qiziqishlari va xususiyatlarini o'rgana bilish va tushunish, pedagogik kuzatuvchanlik, dilkashlik, jonli tasavvurga ega bo'lish, pedagogik nazokat, tashkilotchilik malakalari; keng ma'naviy qiziqishlari; bilishga ehtiyoj sezish, ijtimoiy muammolarni tushuna bilish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi quyidagi o'z kasbiga yot bo'lgan shaxsiy qusurlarni, ya'ni kasbiy loqaydlik, bola tarbiyasidagi formalizm, ularning taqdiriga befarqlik, tajanglik, yengiltaklik, shoshma-shosharlik bilan xulosa chiqarish kabilarni yenga bilishi kerak. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi shunday pedagogik fazilatlarini o'zida mujassamlantirgan bo'lishi kerak, ular quyidagi masalalarni hal qilishga yordam berishi kerak:

- birinchi navbatda, o'quv faoliyatini shunday tashkil qilish kerakki, bunda o'quvchining shaxsi kamol topsin, shuningdek, hozirgi davrda boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yiladigan vazifalar aniq bo'lsin;

- ikkinchidan, kichik maktab yoshidagi bolalarning ruxiy-fiziologik holatlarini bilsin;
- uchinchidan, o'z bilimlarini, psixologik-pedagogik tayyorgarligini oshira borib, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning to'liq o'rganishi, bolalar bilan ularning ota-onalari bilan yaxshi muomalada bo'lishi zarur. Bolalarni o'yin vositasida tarbiyalay bilishi kerak. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kamol toptirishda ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligini doimiy va izchil amalga oshirish lozim; boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilish imkoniyatlarini kengaytirib borishi kerak;

- to'rtinchi boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilimining mazmuni hamda o'qitishning shakl-usullari jamiyatdagi insonparvarlik va demokratik g'oyalarga mos bo'lishi kerak. Bular esa o'qituvchilarning o'quvchilarga bo'lgan munosabatida qandaydir avtoritar harakterdagi ish metodidan voz kechishga olib keladi hamda o'qituvchi shaxsining obro'sini oshiradi;

– yuqori sinf o‘qituvchisi kabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ham faqat dastur mazmunininggina (emas) o‘zlashtirib qolmasdan, fanlarni o‘zlashtirish jarayonini tashkil qila olishi kerak.

Buyuk mutafakkirlarimiz ham o‘qituvchi-muallimlar haqida o‘zlarining fikrlarini bildirib o‘tganlar, biz birgina buyuk tabib Abu Ali Ibn Sinoning fikrlarini keltirib o‘tamiz. Ibn Sino o‘z qarashlarida bo‘lajak pedagoglar uchun bir qator ko‘rsatmalar bergan bo‘lib, bu ko‘rsatmalar dars jarayonini ijodiy tashkil etishga va o‘quvchilarni faol harakatga undaydi: bolani birdaniga kitobga bog‘lab qo‘yib, uning qiziqishlarini so‘ndirish yaramaydi; ta‘lim izchil, mo‘‘tadil, muntazam ravishda oddiydan murakkabga tomon o‘sib borishi zarur; o‘quv mashg‘ulotlari me‘yorlangan va albatta bola yoshiga munosib bo‘lmog‘i shart; ta‘lim jamoa shaklida o‘qitilishi kerakki, ayni jamoada bola kam charchaydi, unda o‘zaro bellashuv tuyg‘usi rivoj topadi. pirovard natijada bolalarda yangi kuch-g‘ayrat sabr qanoat hosil bo‘ladi; ta‘lim tizimi bolaning qobiliyat va qiziqish doirasiga mos bo‘lmog‘i lozim; ta‘lim albatta jismoniy tarbiya mashqlari bilan bog‘lab olib borilishi shart.

Ibn Sinoning yuqoridagi fikrlariga qo‘shimcha tarzda shunday deydi: “Kichik yoshdagi bolani o‘qitishda, faol ruhda tarbiyalashda, muallim tanlashning ahamiyati katta bo‘lib quyidagi talablarga javob bo‘lishi kerak:

– tarbiyachi bolalar bilan muomalada og‘ir-bosiq bo‘lmog‘i lozim; muallim bolaning berilgan saboqni turmushga qo‘llashiga alohida ahamiyat berishi lozim; ta‘lim jarayonida muallim turli tuman usul va shakllardan foydalanishi kerak; ta‘lim tarbiya yo‘rig‘ida muallim o‘quvilarining xotirasi, boshqa aqliy qobiliyatlariga suyana bilmog‘i, ya‘ni har bir bolaning shaxsiy xususiyatlari hisobga olinmog‘i zarur; o‘z o‘quvchilarini ilm-fanga qiziqtirishda muallim tarbiya va jazo usullarini oqilona mushtaraklashtira olishi va ularni o‘tilgan saboqlarni takrorlab borishga o‘rgatmog‘i lozim;

– aytilgan fikr bolalarga tushunarli bo‘lmog‘i uchun, bolaning o‘zi masalaning mohiyatiga yetgan bo‘lishi kerak, fikri lo‘nda, aniq, adabiy, ortiqcha bezaklarsiz bayon qilishi kerak. Mavhum tinglovchi yoki shogirdlarning yoshi va aqliy qobiliyatlariga mos kelmaydigan fikr kutilgan natija bermaydi;

– o‘qituvchi o‘zi aytgan har bir so‘z va jumlasini unga mos, imo-ishora, yuz gavda harakatlari bilan yetkazishni o‘quvchilar bunday xissiy oziq olsinlar”²va hokazo.

Ibn Sinoning pedagoglar uchun bergan ko‘rsatmalari va ta‘lim jarayonini tashkil etish, o‘quvchi faoliyatini izchil yo‘lga qo‘yish haqidagi fikrlaridan shu jihat ko‘zga tashlanadiki, o‘quvchining o‘quv faolliklari jamoa ruhida, birgalikdagi faoliyatda ongni amalga oshiradi.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchi shaxsining erkin faoliyatini tashkil etish, faollikni oshirish

masalasiga jahon pedagogika ilmida hamisha u yoki bu darajada e'tibor qaratilgan.

2 BOB. O'QITUVCHI FAOLIYATINI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISHNING MAZMUNI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

2.1. O'qituvchi faoliyati va mehnatini ilmiy asosda tashkil etishning mazmuni, qoidalari hamda usullari

Shakllanuvchi eksperiment jarayonida proognostik metodlari asosida ijtimoiy faollikning shakllanishi shartli ravishda to'rt bosqichga ajratilib o'rganilgan. Shundan oliy ta'lim bosqichida bo'lajak o'qituvchi shaxsining ijtimoiy faolligida u tomonidan egallanayotgan pedagogik-psixologik bilimlar, pedagogik va ishlab chiqarish amaliyot jarayonidagi ijtimoiy faollik, ijodkorlik motivatsiyasi pedagogik omil sifatida tahlil etilib, jadval holiga keltirilgan. Shuningdek, kasbga bo'lgan mas'uliyat hissi hamda ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni motivatsiyasi ijtimoiy faollikning mazmun-mohiyatini belgilaydi. Ta'kidlovchi eksperiment natijalariga muvofiq talabalarining ijtimoiy faolligini, ijodkorligini o'rganishga qaratilgan prognostik va diagnostik metodlar asosida shakllanuvchi eksperiment ishlari olib borildi. Mazkur metodlar asosida talabalar uch guruhga ajratib o'rganildi.

Birinchi guruhga mansub talaba o'zidagi kasbiy qobiliyat asosida egallayotgan bilim, ko'nikma va malakalarga ega; ilm asosida bilim egallash tamoyiliga asoslanib fanlarni "a'lo" ga o'zlashtiradi; ilmiy-ijodiy izlanish bilan shug'ullanadi; jamoatchilik ishida muntazam qatnashadi; tashabbuskor, jamoada o'z o'rni va ovozigga hamda ma'naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo'lgani uchun shaxsiy va kasbiy sifatlarni uyg'un ravishda olib boradi.

Ikkinchi guruhga mansub talaba o'zidagi bor qobiliyat asosida fanlarni yaxshi o'zlashtiradi, egallayotgan kasbga qiziqish bilan qaraydi; bo'sh vaqtdan unumli foydalanishga harakat qiladi, jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etadi; jamoada o'z o'rni bor; yangilik va tashabbusni har doim ma'qullaydi hamda bu borada o'z fikrini bildiradi; uning kasbiy qiziqishlarini jamoatchilik ishlari bilan qo'shib olib borishi alohida ko'zga tashlanib turadi.

Uchinchi guruhga mansub talaba ko'proq reproduktiv o'zlashtirish imkoniga ega; ilmiy-tadqiqot va jamoatchilik ishlari bilan shug'ullanishni xush ko'rmaydi; yuqoridan topshirilgan shanbaliklar, ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish kabi jamoatchilik ishlarini sifatli hamda ko'zga ko'rinarli darajada bajaradi; ammo o'zicha biror-bir tashabbus bilan chiqmaslikka va o'zini ijtimoiy sust holda tutishga harakat qiladi; lekin bayram tadbirlari va tug'ilgan kunlarda, o'zaro bir-biriga yordam uyushtirishda tomoshabin bo'lib turolmaydi, baholi qudrat yordam qo'lini cho'zishga harakat qiladi. Ijtimoiy faol, ijodkor o'qituvchi shaxsi shakllanishining pedagogik omillarini atroflicha o'rganib, uni yaxlit tizim holida quyidagi rasm ko'rinishida ifodaladik.

Ijtimoiy faol, ijodkor o'qituvchi shaxsi shakllanishining asosiy pedagogik omili o'quvchi shaxsida mustaqil fikr va mantiqiy tafakkurni shakllantirishdan boshlanib, kasbga to'g'ri yo'naltirish, shaxsni ijtimoiy hayot rivojiga to'g'ri tayyorlash bilan barobar ekanligi o'quvchi hamda talaba tomonidan anglanishi bilan chambarchas bog'liqligi aniqlandi.

An'anaviy va interfaol metodlar asosida ijtimoiy faol, ijodkor o'qituvchi shaxsining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi 200 ga yaqin psixologik omillar o'rganib chiqildi. Ana shulardan eng zarurlari saralanib, ierarxik tartibda joylashtirildi. Ijtimoiy faol, ijodkor o'qituvchi shaxsining shakllanishiga turtki bo'luvchi eng zarur psixologik omillar 12 taga keltirildi. Shulardan birinchisi, o'qituvchining temperament xususiyatlari bo'lib chiqdi. Undan so'nggi psixologik omillarda o'qituvchining ruhiy va jismoniy sog'lomligi aniqlandi.

Tadqiqiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, har bir pedagogik va psixologik omil o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra nazariy tahlil hamda amalga oshish darajasiga muvofiq bir qancha muammoli vaziyatlar, muammolar va ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday hollar shaxsning ijtimoiy faolligi hamda ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Ijod, ijodiylik, bunyodkorlik, yaratuvchanlik murakkab, ruhiy jarayon bo'lib, u avvalo o'qituvchilarning fikrlashi, dunyoqarashi, mustaqil faoliyat ko'rsatishi, xotirasi, diqqati, irodasi bilan chambarchas bog'langan. Sharqning buyuk mutafakkirlari ijodiy tafakkurga shunday ta'rif beradi: «... shunday ulug' fazilatki, inson uni egallash, uchun boshqa hamma fazilatlarini ishga solishi kerak» - deydi Qomusiy olim al-Farobiy.

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida yangi ijtimoiy munosabatlarga faol kirisha oladigan, demokratik, huquqiy tamoyillarga asoslangan erkin fuqarolik jamiyat qurishda o'zining insonparvarlik burchi va kasb ma'suliyati bilan yashay oladigan yetuk shaxslarni tarbiyalash dolzarb muammo hisoblanadi.

Har qanday mehnatning muvaffaqiyati va samarasi uni tashkil etishga, bu mehnatni uyushtirishga ta'sir etadigan shart-sharoitlarga, faoliyatni amalga oshirish yo'llariga bog'liq.

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish deganda pedagogik jarayonni boshqarish uchun pedagogika, psixologiya fanining eng so'nggi yutuqlaridan foydalangan holda o'z ishini ijodiy tashkil etib yangiliklarni yaratish tushuniladi. O'qituvchi mehnati uning vaqti bilan bog'liq bu ishning muvaffaqiyati vaqtdan umumli foydalanish, o'zining imkoniyatlarini to'la hisobga olish, o'quv tarbiya jarayonida o'zini namoyon etish va o'zining kimligini, qanday ekanini, nimalarga qodir ekanligini tasdiqlash bilan bog'liq.

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish birinchi navbatda o'zining ijodiy imkoniyatlariga ishonish demakdir. O'qituvchi ta'lim jarayonini to'la tasavvur etishi kerak, uning, qonuniyatlarini, bolani bilish imkoniyatlarini yaxshi anglashi kerak.

Pedagogik mehnat natijasi o'quvchilarni mustaqil ishlay olishi, isbotlay olishi, taxlil qila olishidadir.

Mehnatni ilmiy asosda tashkil etishda namoyon bo'ladigan 3 ta asosiy belgilar:

1. Vaqtdan imkon qadar samarali foydalanish;
2. Mehnat va dam olish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlardan samarali foydalanish, uni tashkil etish;
3. Barcha imkoniyatlarni ishga solgan holda mehnat qilish va har tomonlama g'amxo'rlik qilish.

Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishda o'qituvchining kun tartibi va ish joyi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'zi uchun eng optimal yuqori unum beradigan kun tartibini topa olishi kerak.

Pedagogik mehnatning samarasi, maqsadi va faoliyat vazifasiga ko'ra bilishda va aniqlay olishdir. Shundagina uni ilmiy asosda tashkil etish mumkin bo'ladi. Bu o'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning birinchi tamoyilidir.

2-chi tamoyili faoliyat uslubini belgilash.

3-chi tamoyili pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishda texnikadan vosita sifatida samarali foydalanish tushuniladi. Bu tamoyil ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik texnika va texnik vositalar yig'indisi ko'zda tutiladi.

4-chi tamoyili ta'lim-tarbiya ishining rejalashtirish hisoblanadi. Reja ta'lim-tarbiya faoliyatini tartibga solish. Uning modelini yaratish. Tayanch sxemalarini topish masalalaridan tashkil topadi. Shular aniqlansa, o'qishda rivojlanish, tarbiyalash jarayoni yengillashadi.

Pedagogik mehnatni nazorat qilish va hisobga olish prinsipi o'qituvchi ishini muntazam va planni kuzatib borish shundan yutuq va kamchiliklarni aniqlash ko'zda tutiladi. Pedagogik nazorat ob'ektivlik, omilkorlik, samaradorlik, muntazamlilik va oshkorlikni talab qiladi.

O'qituvchi mehnatini nazorat qilish va hisobga olishning muntazamligi, izchilligi quyidagilardan tashkil topadi:

- A) o'quv matriallari va tarbiyaviy tadbirlarga tayyorlashini o'zi tomonidan nazorat qilinadi;
- B) darsdan tashqari vaqtlarda ta'lim-tarbiya nazorat qilishi va o'zini nazorat qilishi;
- V) o'qituvchining darsdan tashqari vaqtini nazorat qilishi;
- G) ota-onalar va jamoatchilik bilan bajariladigan ishlarni nazorat qilish;
- D) o'zi ustida ishlashni nazorat qilish.

O'qituvchi o'z ustida ishlar ekan, kasb-kor malakasini oshirish bo'yicha aniq maqsadga muvofiq tavsifa va ko'rsatmalarga ehtiyoj sezadi, ular esa izchil bir tizimga solinmagan.

Ma'lumki, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonining sub'ekti sifatida tayorgarlik darajasi,

pedagogik mahorat va shaxs sifatlari bilan o'quvchilarning ahloqi, odobi va ma'nan rivojlanishlari komil inson bo'lib tarbiyalanishlarga bevosita ta'sir etadi.

O'qituvchining o'z malakasini uzluksiz takomillashtirib borish asosan quyidagi 4 yo'nalishda bo'ladi, ya'ni;

- kasbkor tayyorgarligi (o'zi o'qitadigan fani bo'yicha nazariy, uslubiy salohiyati);
- pedagogik mahorat (pedagogik va psixologik bilimlarni egallaganlik darajasi).
- pedagogik madaniyat (pedagog qobiliyat, texnika, takt va muomala madaniyati);
- shaxs sifatlari.

O'qituvchi mustaqil malaka oshirish jarayonida faqat o'zining nuqson yoki kamchiliklarini tuzatish emas, balki pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish uchun fan va amaliyot yangiliklarini faoliyatga tadbiiq etadi, sinab ko'radi. Shu bilan umumpedagogik saviyasining yangi sifat o'zgarishiga erishadi. Demak o'z ustida mustaqil ishlash pedagogik uchun shaxsiy ijodiy faoliyat hisoblanadi.

O'qituvchining pedagogik faoliyati va o'z malakasini uzluksiz oshirib borish muammolar bilan bog'liq bo'lgan ilmiy taqdiqotlar, o'z kasbining ustasi ijodkor pedagoglarning amaliy faoliyatlarni o'rganish, tahlil etish hulosalariga asoslansak, shaxsiy ijodiy faoliyat yoki o'z umumpedagogik malakasini uzliksiz takomillashtirish bosqichlarini tahminan quyidagicha belgilanishi mumkin:

1. O'z nazariy-uslubiy, pedagogik-psixologik tayyorgarlik darajasi, pedagogik mahorat, imkoniyatlar va shaxs sifatlarini tahlil qilish (o'z-o'zini diagnostikalash).
2. O'z-o'zini diagnostikalash natijalari asosida qiyinchilik va muammolarni umumlashtirish o'z kasb-kor mahoratini takomillashtirish yo'nalishlarini va ochiq maqsad vazifalarini belgilash.
3. Maqsad va vazifalar darajasida o'z pedagogik mahoratini takomillashtirish vosita usullarini tanlash shaxsiy ijodiy faoliyat dasturi yoki o'z ustida mustaqil ishlar rejasini tuzish.
4. Shaxsiy ijodiy faoliyat reja va dastur asosida o'z umum pedagogik mahoratini takomillashtirish.
5. O'z kasb-kor mahorati va ijodiy o'sish jarayonini vaqti-vaqti bilan o'rganish (o'z-o'zini qayta diagnostikalash), tahlil etish, mustaqil ijodiy faoliyatga o'zgartirish, tuzatishlar (kerak bo'lganda) kiritish.
6. Mustaqil ijodiy faoliyat natijalarni umumlashtirish, ularni ijodiy faoliyatning maqsad va vazifalar bilan tahlil etish istiqbolli yo'nalishlarini belgilash.

Albatta, shaxsiy faoliyatni tashkil etishda o'qituvchi mustaqil harakat qiladi. Shunga qaramasdan yuqorida bayon etilgan targ'ibot (struktura) shaxsiy ijodiy faoliyat jarayonining izchilligini ta'minlaydi.

O'qituvchining o'z ustida mustaqil ishlashi, o'z kasb-kor mahoratini takomillashtirishiga bo'lgan ehtiyoji jamiyatning maktab, o'qituvchi, uning shaxsiga nisbatan talab va e'tiborining o'sishi yoki ta'lim-tarbiyaga bo'lgan yangicha ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liq bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya tizimidagi yangiliklar, shaxsiy tadbirlar, istiqbolli yo'nalishlar o'qituvchi oldiga hal etishi zarur bo'lgan yangi vazifalarni ko'ndalang qo'yadi va undan doimiy izlanishu, ijodkorlikni talab qiladi.

Demak o'qituvchi o'z shaxsiy faoliyati yoki kasb-kor mahoratini mustaqil takomillashtirishi ishini tashkil etishda, eng avvalo, jamiyatning maktabga qo'ygan yangi ijtimoiy buyurtmasi nuqtai nazaridan yondoshadi. Mustaqil ijodiy faoliyatning aniq yo'nalishlari va mazmunini belgilashda o'qituvchi ularni o'z-o'zini diagnostikalash pedagogik faoliyatni yaxlitligicha tahlil etish, o'qituvchiga o'z muammo va qiyinchiliklarni aniq belgilash imkonini beradi.

Shuning uchun ham o'qituvchilar uchun o'z-o'zini baholashda ob'ektiv bo'lish, diagnostikalash vosita va usullarini bilish, eng asosiysi «o'zini bilmagan o'zgani bila olmaydi» qabilida ish tutishlari maqsadga muvofiq.

O'qituvchilar asosan malaka oshirish kurslari va kursdan kursgacha bo'lgan davrda mustaqil bilim olish bilan umumpedagogik mahoratlarini takomillashtiradilar.

Malaka oshirish kurslarida o'qish va mustaqil bilim olish bir-birini to'ldirib o'qituvchining nazariy, uslubiy tayyorgarligini, pedagogik mahoratini uzluksiz amalga oshirish haqida shaxsiy ijodiy faoliyat izchilligini ta'minlaydi.

Malaka oshirish kursi tugallanishida tinglovchi kursdan keyinga topshiriqni oladi. O'qituvchining keyingi bosqichini kursdan-kursgacha bo'lgan davrdagi ijodiy mavzusi bo'lib, uning shaxsiy ijodiy-faoliyati mazkur muammoni hal etishga yo'naltiriladi.

Shaxsiy-ijodiy faoliyat mavzusini tanlash va belgilashda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq:

- mavzuning o'qituvchi imkoniyati, qiziqishi va tayyorgarlik darajasiga mos bo'lishi;
- o'qituvchi faoliyatining istiqbolligi bilan bog'liqligi;
- oddiy moxiyatga ega bo'lishi.

Shaxsiy ijodiy faoliyat har bir o'qituvchining o'ziga xos bo'lib, uning individual-pedagogik malaka va ko'nikmalarini shakllantiradi. O'qituvchining shaxsiy ijodiy faoliyatini shunday tashkil qilish kerakki, uning natijalari ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga ijobiy ta'sir etsin.

O'qituvchi ijodiy faoliyat rejasini tuzishida nimalarga asoslanishi kerak?

Rejalashtirish o'qituvchining o'z kasb-kor tayyorgarligi, pedagogik mahorati va shaxs sifatlarini diagnostikalashdan boshlanadi.

Shaxsiy ijodiy mavzu (muammo) ni belgilashda o'qituvchi albatta o'zi ishlayotgan maktab muammosidan kelib chiqishi kerak. Shaxsiy ijodiy faoliyat muammosi aniqlangandan so'ng, shaxsiy reja tuziladi.

Rejada quyidagi bo'limlardan bo'lishi tavsiya etiladi.

1. Ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy savodni oshirish.
2. Pedagogik va psixologik bilimlar.
3. Mutaxassislik bo'yicha nazariya va uslubiy tayyorgarlik.
4. Umummadaniy tayyorgarlik.

Shaxsiy ijodiy reja asosida bajarilgan ishlar maxsus kundaliklarga qayd etilib, ular mazmun-mohiyatini qisqacha yozib beriladi.

Shaxsiy ijodiy reja berilishlarida quyidagi manbalardan foydalaniladi:

- 1) pedagogik, psixologik, uslubiy manbaa va adabiyotlar;
- 2) ilg'or pedagogik tajribalar;
- 3) mavzuga tegishli ilmiy-tadqiqot ishlari;
- 4) ilmiy-uslubiy tadbirlar (seminar guruxiy maslahat, konferensiya, pedagogik o'qish)

va x.

Shaxsiy ijodiy rejada belgilangan ishlarni amalga oshirish - o'qituvchining o'z-o'zini nazorat qilish malakasi rejasini to'liq bajarilishi va ijobiy faoliyat samaradorligini ta'minlaydi. Bundan tashqari o'qituvchining mustaqil faoliyati uslubiy xizmat tizimi xodimlari (maktab direktori) o'quv-uslubiy ishlar (bo'yicha direktor muovini, metodbirlashma raxbari, metodistlar) tomonidan ham nazorat qilinishi va maqsadga yo'naltirilishi darkor. Bunday nazoratda, avvalo, o'qituvchiga uslubiy va amaliy yordam berish nazarda tutiladi.

O'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalashi uchun, avvalo o'zini atroflicha chuqur o'rganishi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni ko'ra olishi kerak. O'z-o'zini o'rganish va boshqa kishini anglash uchun ham zarurdir. Boshqa yutuqlarni o'rganmay, o'zini boshqalar bilan qiyos qilmay turib, o'zini shaxs sifatida o'rganish mumkin emas. O'zini anglash, o'zini baholash xususiyati boshqa kishilar bilan munosabat jarayonida, birgalikdagi faoliyat vaqtida tarkib topadi.

Pedagogik vazifasi – faqat irodaviy fazilatlar doirasini ko'rsatib berishdan, ularning muhim ahloqiy prinsiplari bilan ichki aloqasini ochib berishdan tashqari o'z irodasini o'zi tarbiyalashga intiluvchi o'quvchiga yordam berish, irodaviy fazilatlarini rivojlantirishning qanday usullari kam samarador va qaysi birlari jiddiy yordam bermasligini ko'rsatishdan iboratdir. Agar pedagogik adabiyotda ta'rif-tasvirlanayotgan yoshlar qo'llayotgan sodda va yasama usullarga e'tibor beradigan bo'lsak, yana ham muhimdir. O'quvchilardan biri «sabr-toqatini rivojlantirish» uchun kinokomediya ko'rsatilayotganda kulmaslikka harakat qildi, kimdir qo'lini pichoq bilan kesdi va hakoza? Irodani mustaqil tarbiyalashning ana shu usullari samarasizligi eng avvalo

shundaki, o'spirin bir lahzalik «irodaviy hatti-harakat» ni amalga oshirib, o'zining irodasi kuchli ekanligi to'g'risidagi fikrni tasdiqlay oladi. Aslida esa irodani kundalik hayotda, o'qishda va birinchi navbatda uchraydigan qiyinchiliklarni muntazam ravishda bartaraf etishni tashkil etadi. Buning ustiga mehnat, o'qish, sport faoliyatining har bir daqiqasi irodani chiniqtirish uchun o'quv, mehnat va boshqa faoliyatni amalga oshirishga halaqit beradigan bir daqiqalik istaklarni bartaraf etish uchun sharoit yaratadi.

Eng avvalo o'qituvchi o'zida pedagogik qobiliyatning qanday xislatlari borligini o'rganishi kerak. Pedagogik faoliyatga muhabbati yuksak o'qituvchi ishga chin ko'ngildan berilib ishlaydi, hech qanday formalizmga yo'l qo'ymaydi. O'z kasbini sevgan o'qituvchi doimiy ravishda g'oyaviy-siyosiy saviyasini oshirish va bilim doirasini kengaytiradi, o'z predmetini chuqur bilish ustida qunt bilan ishlaydi.

Ma'lumki, insoniyat kamolotga chorlovchi imkoniyatlari shunchalik ko'pki, ularga erishish maqsadlari intilishida sabr-toqat bilan o'z ustida ishlash orqali erishishi mumkinligini tarixiy faktlarda ko'ramiz.

Buyuk nemis pedagogi D.Disterverg har bir o'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalashni o'z oldiga sharaflil vazifa qilib belgilashi lozim.

Rus pedagogi A.B.Lunacharskiy; «Pedagog o'zida insoniyat idealini shakllantirishi lozim» - degan edi.

Aynan insoniyatning go'zal fazilatlarini o'zida shakllantirish har bir pedagogning kasbiy tayorgarligining poydevorini tashkil etadi. Ushbu poydevorda pedagogning kasbiy mahorati o'z ustida ishlash tufayli kundan-kunga o'sib borishi mumkin.

A.S.Makarenko kasbiy takomillashtirish masalasida shunday degan edi. «Men pedagogik ta'lantga ega edim. Pedagogikaga kutilmaganda kirib keldim va o'rgandim. Men o'z ishimning ustasi darajasida ko'tarildim O'z ishimning ustasi darajasiga har bir intiluvchi pedagog erishishi mumkin.» Bunda unga yordam berishi, o'zi ustida ishlash asosiy rol o'ynaydi.

Otto Yulevich Shimit umrining har bir daqiqasidan sermahsul foydalanadi. Yerning va sayyoralarining paydo bo'lishi nazariyasining asosi. U o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanib, inson imkoniyatlari keng ekanligini isbotladi. A.A Lyubishev, shunday degan, inson uchun yomon, bo'sh, ortiqcha vaqt bo'lishi mumkin emas. U o'z umrining daqiqalarini ongli holda hisoblashdan qo'rqmas edi.

K.D.Ushinskiy o'z-o'zini tarbiyalash orqali quydagilarga erishdi.

1) xotirjamlik 2) so'zda ishonch va to'g'rilikka. 3) xatti-harakatga mulohaza bilan yondashish 4) qat'iylilik 5) o'zi xaqida sababsiz biror og'iz gapirmaslik. 6.) lozim narsalardangina foydalanish. 7) har kuni kechasi o'ziga o'zi hisobot berish. 8) biror marotaba maqtanmaslik.

Shuni aytish joizki, ko'plab insonlar o'zining bebaxo vaqtini bekorga o'tkazib yuboradi.

Inson o'z odatlarning bir xillik kun tartibi xukmronligi ta'siriga kirib, o'zining rejalarini keyingi kunga yoki haftaga yoki yillarga qoldira boshlaydi. O'z-o'zini ishontirish, sobit qadam iroda orqaligina o'zining qobiliyatlarini namayon etishga erishish mumkin. O'zini tarbiyalashning psixologik sharoitlardan biri o'z-o'zidan norozilik bo'lib, uni L.N. Tolstoy, «. . . Men telba, o'zgalarga qizig'i yo'q, chidamsiz va bolalardek uyatchanman».

1. O'z-o'zini tarbiyalash o'z faoliyatini taxlil qilishdan va o'z shaxsini takomillashtirishdan boshlanadi. O'qituvchi o'z ustida ishlashi, o'z-o'zini tarbiyalashda quydagi uslublardan foydalanadi:

1. O'z-o'zini bilish:

- a) o'zini kuzatish.
- b) o'z harakatlarini tahlil etishi.
- v) o'z-o'zini sinashi.
- g) o'rtoqlarining fikrini tushuna olish

2. O'ziga baho berish:

- a) o'zini kuzatish.
- b) o'ziga harakteristika berish.
- v) o'z-o'zini taqdirlash.

O'z-o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi. O'z shaxsiy fazilatlarini tahlil qilishga, xatti-harakatlarini o'ylashga o'rgatadi. O'z-o'zini nazorat qilish uchun o'zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishini kuzatib boradi. O'z-o'zini baholash o'qituvchini, o'z imkoniyatlarini baxolashda, o'zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

O'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalash bilan birga o'z ustida tinmay ishlab, o'zining g'oyaviy-siyosiy ongini doimiy ravishda o'stirib va pedagogik mahoratini takomillashtirib boradi.

M.I.Kalinin o'qituvchilarga qarata shunday degan edi: «O'qituvchi o'zini butun kuch-quvvatini, imkonini, o'zida bor hamma qimmatbaho narsalarni o'z o'quvchilariga, xalqqa beradi. Ammo, o'rtoqlar, agar siz o'zingizda bor narsalarning hammasini bugun, ertaga, indinga bersangiz-u, lekin o'zingizda bunda o'z bilimlarigazni, o'z kuchingizna, o'z quvvatingizni yana va yana to'ldirib bormasangiz, u holda o'zingizda hech narsa qolmaydiku, ahir. O'qituvchi, bir tomondan, o'zida borini beradi, ikkinchi tomondan, xuddi gubka kabi o'ziga xalqdan, hayotdan, fandan hamma yaxshi narsalarni olib hazm qiladi va bu hamma yaxshi narsalarni yana yangidan bolalarga beradi».

Ilg'or o'qituvchi hamma vaqt pedagogika sohasidagi yangiliklarni bilishga intiladi, boshqa o'qituvchilarning tajribalaridan foydalanishga hamda o'z shaxsiy tajribalaridan foydalanishga, hamda o'z shaxsiy tajribalarini umumiyashtirishga harakat qiladi.

Agar shaxs izlansa, o'z qobiliyatlari ustida ishlasa, o'zidagi yaxshi fazilatlarni kamol toptirsa, uning obro'si, mavqei ham shu darajada yuksaladi va doimo el nazarida bo'ladi. O'qituvchi o'zida kuzatuvchanlikni, g'amxo'rlikni tarbiyalashi lozim. O'qituvchining mustaqil bilim egallashi va malakasini oshirishi zaruriy shartlardandir. Sharq mutafakkirlari o'qituvchi o'zi o'qib tursagina – o'qituvchi bo'la oladi, agar o'qishni to'xtatib qo'yar ekan, unda o'qituvchilik ham o'ladi, deb haqqoniy aytganlar.

Iroda va harakterni shakllantirishda o'z-o'zini tarbiyalash. O'qituvchilik faoliyatida o'qituvchi karakteri muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda iroda, his-tuyg'ularini boshqarish katta ahamiyat kasb etadi. O'zini-o'zi tarbiyalash ma'lum natijalarga olib kelishi lozim. Bunda: o'zini idora eta olish, yaxshi kayfiyat, o'ziga buyruq berish, ishontirish, shaxsiy rejimga rioya qilish va o'z qoidasiga ega bo'lish.

L.N.Tolstoy o'z-o'zini tarbiyalashda quyidagi qoidalarga amal qilar edi. Nima belgilasa xech narsaga qarmay tezkorlik bilan bajarar. Nimani bajarsa yaxshi bajar. Doimo aqliy, o'z imkoniyati doirasi asosida faoliyat ko'rsatishga harakat qilardi.

V.Shekspir shunday yozgan edi. «Uyqu ona tabiatining g'aroyib, shirin taomidir tanavvul qilish me'yorini bilish lozim».

O'z-o'ziga buyruq berish, o'z-o'zini tarbiyalashning muhim usullaridan biri. Masalan, A.Meres'ev «Olg'a, olg'a chidash kerak!» . . .

U.G.Shuls faraziga ko'ra o'z-o'zini tarbiyalash programmasi (dasturi):

1. Bir kunlik yoki haftalik ish rejasini tuzish, uni bajarish;
2. Umidsizlikka tushmaslik, kamchiliklarni bartaraf etish;
3. O'ziga, muvaffaqiyatga ishonish;
4. «Men o'zimga ishonaman», «Men buni qilishni xoxlayman», «Men qila olaman»

kabi o'z-o'zini ishontirish formulasini qo'llash.

O'zini tarbiyalash:

- Jiddiy, o'ylab ish ko'rish;
- Ma'ruza, seminar darslarida e'tiborsizlikka berilmaslik;
- «Men diqqat bilan eshityapman», «Mening diqqat e'tiborimda» formulasini qo'llash.
- O'z-o'ziga buyruq berish. «Pedagog fikrini kuzatib borish lozim».
- O'ziga-o'zi hisobot berish, kun yoki hafta yakunini qilish.

O'zini tutish: (tashqi ko'rinish madaniyati).

- a) to'g'ri.
- b) to'g'ri, erkin o'tirish.
- v) yig'ilgan, ishchan holat.

Pedagogik muloqot madaniyati.

1. Muloqot jarayonida bosiq, samimiylilik kayfiyatida bo'lish.

- a) suhbatdoshni eshitish madaniyati.
- b) savollar bera olish.
- v) suhbatdoshni fikrini eshitish va tahlil qila olish.
- g) boshqalar bilan ilk munosabatni o'rnatish malakasi.
- d) boshqalarni tushunish malakasi.
- ye) vaziyat jarayonida anglay bilish malakasi.

2. Ko'z orqali aloqa o'rnatishga harakat qilish.

- a) siz auditoriyaga qarab dars olib boryapsizmi?
- b) eshituvchilarning xolatini, ta'sirchanligini anglash, ko'ra bilish.

3. O'z muloqoti, hikoyasi bilan qiziqтира olishning xususiyatlari:

- a) Auditoriyada erkin ma'ruza o'qish yoki ta'lim mazmunini konspekt yordamisiz bayon eta olish xususiyati.
- b) tashqi ko'rinishining samimiy muloqatga hozirligini ifodalay olish holati.
- v) O'zining munosabatini voqelikda aks ettirish.

Xulosa, ma'lumki, jamiyat taraqqiyotida ta'lim-tarbiya, uning mazmunini, maqsad vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir tuzim ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy taraqqiyot o'z yo'nalishini belgilashda yosh avtorga nimani o'qitish kerak? Qanday o'qitish lozim? Kimlar o'qitishi kerak? Kabi savollar jamiyat oldidagi ko'ndalang qo'yiladigan savollarga javob izlab kelingan. Mazkur savollarga javob topish, ya'ni ta'limni yangilash, uning tizimini, mazmunini qayta qurish, yangi holatga yo'naltirish Respublikamizning ustivor yo'nalishlaridan biridir. Albatta, bu yo'nalish keng qamrovli, bosqichma-bosqich ravishda amalga oshiruvchi jarayondir.

Yoshlarda mustaqil ravishda bilim olish va uni hayotga qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish, ahloq va odobni yaxshilash zarurati talabalik davrida shakllanadi.

Yoshlarni talaba bo'lganiga qadar ota-onasi, maktab o'qituvchilari, qarindosh-urug'i, mahalla-kuy nazorat qilib borsa, talaba bo'lgandan keyin bu nazorat susayib ketadi. Bu holatni talabaning o'zi anglab yetishi lozim, shundan keyin boshqaruv nazariyasining asosiy tamoyili, tushuncha va qoidalarini egallagan xolda o'zini-o'zi tarbiyalay boshlashi kerak.

Hozirgi kun o'quvchilarini zamon talabiga mos o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish bilan bir qatorda ta'limni ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishni taqozo etmoqda. Bu jamiyatga o'z qarashlari shakllangan, keng fikrga ega, ijodkor, qobiliyatli, egallagan bilimlarini hayotga tadbiq eta oladigan davr talabiga mos yashash, mehnat qiladigan, madaniyatli, odob-ikromli, odamgarchilik xususiyatlarga ega bo'lgan, jismoniy jihatdan barkamol yoshlarni tarbiyalash talabini qo'ymoqda.

Dars ta'lim-tarbiya jarayonining markazi hisoblanadi. Shuning uchun ham maktabda

darsga alohida ahamiyat qaratiladi va o'qituvchining zamon talabiga mos dars o'tishi talab etiladi. Uzoq davrlar moboynda dars jarayonini tashkil etish nazariyasi ishlab chiqilgan bo'lsada, uni amalga oshirishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Masalan, o'quvchining o'zi mustaqil ravishda ishlashi, bilimlarni o'zi mustaqil egallab olish qobiliyati hali to'g'ri yo'lga qo'yilmagan, ya'ni, didaktik omillar ta'kidlaganidek «Yomon o'qituvchi haqiqatni beradi, yaxshi o'qituvchi esa shu haqiqatni o'zi egallab olish yo'lini ko'rsatib beradi». Dars ko'proq o'quvchilarning mavjud bilimlarini egallashga yo'naltiriladi.

Tashqaridan qaraganda bu yondashuv to'g'ri bo'lib ko'rinsada, bu masala atroflicha tahlil qilinganda asosan tashqi ko'rinishga e'tibor qaratib, ichki tuzilishida o'quvchilarning bilim olishi, o'y-fikrlash qobiliyati hisobga olinmaydi. O'qituvchi o'zining odiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun harakat qiladi. O'quvchilarning faolligi e'tiborga olinadi-da, biroq amalga oshirilmaydi. To'g'ri tashkil etilmagan dars o'quvchilarning o'qish-bilish faolligini nazorat qilish imkoniyatini yarata olmaydi. Darsning borishidagi yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni nazarga olib, ko'pchilik didaktlar dars borishini mustakil tuzib, o'quvchining faolligi, topqirligi, ijkorligini taqiqlamaslik zarur deb ta'kidlashadi. Darsning borishi uning turiga, maqsadiga, mazmuniga, bolalarning imkoniyatiga qarab tashkil etilishi shart.

Jamiyatimizda bo'layotgan o'zgarishlar o'qish metodikasiga nazariy va amaliy jihatdan davr talabiga mos darsni tashkil qilishni talab etmoqda. Shuning uchun ham, taniqli olimlar bilan metodistlar, ijodkor o'qituvchilar bugungi dars qanday bo'lishi kerak, u oldingi o'tilgan darsdan nimasi bilan farq qilish lozim degan savolga javob qidirmokda. Shundan kelib chiqib, o'quv-tarbiya jarayonining mazmuni ham yangilanadi, maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonining sifatiga, o'quv jarayonini tashkil etishga e'tibor kuchayadi. Darsdagi ta'lim-tarbiya ishidagi quyidagi ko'rinishlarni nazarda tutish va ularni imkon qadar ta'lim jarayoniga tadbiiq etib borishimiz zarur.

Birinchidan, sinfda mustaqil (erkin) psixologik muhit, o'qituvchilarga hurmat-ehtirom, ishonch va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish;

Ikkinchidan, o'quv faoliyatining oliy motivini keltirib chiqarish, faqat o'quvchilarga o'quv materialining ahamiyatiga bildirib qolmasdan, ularga bilim olishning o'qituvchi tomonidan taklif qilingan metodlarga e'tiborni qaratish;

Uchinchidan o'quvchilarni bilim olishini kafolatlovchi ishonchli metod va usullar bilan tanishtirish.

To'rtinchidan, darsni o'quvchilarning mustaxkam, yaxshi bilim olishga yo'naltirish.

Beshinchidan, barcha o'quvchilarning oliy darajada bilim olib, (D.T.S. asosida) uni yangi sharoitda qo'llay olish imkoniyatlariga sharoit yaratish. Darsda o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini to'g'ri hulosali tashkil eta olish va ularning o'z mehnatining mevasidan qanoatlana

oladigan sharoitlar yaratish.

O'qituvchi o'quvchilarga nisbatan muayyan holatda tursagina pedagogik ta'sir ko'rsatishni muvaffoqiyatli amalga oshira oladi. Mazkur holat o'quvchilar bilan muomala sohasida o'qituvchining asosiy yo'l-yo'rig'idan ibrat bo'lib, u o'quvchilarning psixologik yosh xususiyatlariga monand bo'ldi.

Turli yoshdagi o'quvchilarning muomilasiga ta'sir ko'rsatish sub'ekti bo'lgan o'quvchi tutgan yo'l va mahoratini umumlashtirishga tavsifni quyidagicha tasavvur qilish mumkin. Quyi sinflarda o'qituvchi tashkilotchi bulib maydonga chiqadi. Pedagog kichik yoshdagi o'quvchilar hayotiga ta'sir ko'rsatishning asosiy mazmuni uni tashkil etish zarurati bilan belgilanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar kollektivlarida talabchan va quvnoq tarbiyachi bo'la oladigan bolalarning faol ijodkorlik bilan to'la hayotni tashkil etib, ular orasida o'zaro hayrixoxlik g'amxo'rlik vaziyatini, zavqli vaziyatini vujudga keltira oladigan tarbiyachilar katta obro'-e'tibor qozonadilar. Bolalar katta yoshdagi bunday kishilarni o'z do'stlari deb qabul qilishga moyildirlar.

Har tomonlama garmonik rivojlangan, jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk komil insonlarni tarbiyalashda o'qituvchining roli beqiyosdir. Bu haqda yurtboshimiz I.A.Karimov Oliy Majlisning IX sesiyasida so'zlagan «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» nomli tarixiy nutqlarida alohida to'xtalib, ayniqsa maktab o'qituvchilari oliy ma'lumotli, o'z fanini chuqur biladigan, zamonaviy texnologiyalardan xabardor, keng dunyoqarashli, pedagogik, tashkilotchilik qobiliyatlari yuqori, ijodkor shaxslar bo'lishlari zarurligini ta'kidlagan edilar.

O'quvchilardan mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun bilimlarni o'zlashtirish jarayonini mahoratli o'qituvchi shunday tashkil etish lozimki, bu jarayon mashq qilib qolmasdan, masalalarni mustaqil yechish qobiliyati, mustaqil fikrlash ham mashq qildirish lozim. Avvalo fikrlashga o'rgatishni savolni to'g'ri qo'ya olishdan boshlash kerak.

Tajribali o'qituvchi har doim o'quvchilarni muammoga, muammoli vaziyatlarga olib keladi. Agar o'quvchi bir necha urinishlardan so'ng, o'qituvchining aytib berishini kutmasdan, bunday vaziyatdan chiqish yo'lini mustaqil topsa, u aqliy taraqqiyotda katta qadam qo'ygan bo'ladi.

Tafakkurning oliy darajasi har doim o'z-o'zi bilan bahslasha olish ko'nikmasida ifodalanadi. Oliy darajada fikrlaydigan inson har doim bahslashishiga tayyor bo'ladi. U har doim barcha qarama-qarshiliklarni yenga oladi, unga javoban qarshi fikrlarni tayyorlab qo'yadi. Har bir umumiy haqiqatni mustaqil tekshirib ko'rishga o'rgating, o'quvchiga umumiy haqiqat bilan yagona fakt orasidagi qarama-qarshilikni hal qilishga yordamlashing. Ana shu usul bilan o'quvchida fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish mumkin, faqat shu yo'l bilan mustaqil

fikrlaydigan, g'oyaviy chiniquqan, keng dunyoqarashli, e'tiqodli komil insonlarni tarbiyalash mumkin.

Xulosa, qilib aytganda inson o'zi bajara olmaydigan narsalarni boshqarishga o'rgata olmaydi. Maktab fikrlashga o'rgatishi zarur, - bu esa o'qituvchining o'zi fikrlashga o'rganishi zarurligini anglatadi. Bu xol hozirgi oliy pedagogik o'quv yurtlarda tahsil olayotgan talabalarni zamonaviy ruxda fikrlashga o'rgatish zaruriyatini anglatadi yani, ta'lim-tarbiya berayotgan bu ustozlar oldiga yuksak ma'suliyatni yuklatadi.

O'qituvchilik kasbiga qadam qo'yish niyatida bo'lgan bo'lajak pedagog o'z-o'ziga; shu kasbni sevamanmi, dilimda bu ishga havas o'ti bormi, men bolajonlik fazilatiga egamanmi, bir umr ana shu nihoyatda murakkab, lekin sharaflilik kasbning jozibali sehri bilan yashay olamanmi, degan savollarni o'ziga berib, qalbidan javob olmog'i lozim. Insonni el hurmatiga sazovor etuvchi yaxshi fazilatlardan biri tanlangan kasbida sadoqat bilan ishlay bilishidir. Kasbiga ko'nikish insonni bezovchi ziynat bo'libgina qolmay, ishini unumli ham qiladi.

O'qituvchi kasbini sevishidan tashqari, o'z fani bo'yicha chuqur, yondosh fanlar bo'yicha-keng bilimga ega bo'lishi kerak. Bola bilimdon o'qituvchini sevadi. O'qituvchi o'z bilimini o'quvchilarga bera olishi, eng muhimi, ularda bilimga qiziqish uyg'ota bilishi, dars yoki ma'ruzalarda talabani o'zi bilan birga fikrlashga o'rgatishi lozim. O'qituvchi o'z kasbining ustasi bo'lishi uchun dars yoki ma'ruzalar davomida pedagogik ta'sir ko'rsatish usullaridan foydalana bilishi ham zarur.

Ziyo targ'ibotchisi bo'lgan ziyokor o'qituvchi eng madaniyatli inson bo'lib, bu fazilat uning yurish-turishida, fe'l atvorida, kiyinishida, oiladi, ish joyida, odamlar bilan muomala madaniyatida, ro'zg'or yurgizish, jamoat joylarida o'zini tuta olishligi, nutq madaniyati kabilarda o'z aksini topadi. Bu fazilatlar har bir olijanob o'qituvchining go'zal ichki dunyosini ifodalaydi. O'qituvchi o'quvchi bilan muomalada pedagogik odobga rioya qilishi, o'zini tuta bilishi, sharoitni hisobga olib, ta'lim-tarbiya usulini tanlashi lozim. Zero, o'qituvchi yoshlarning do'sti va yo'l ko'rsatuvchi murabbiysidir.

Ta'lim va tarbiya sohasidagi islohotlar birinchi navbatda o'qituvchining shaxsi bilan bog'liqdir. Shunga ko'ra, avvalo, o'qituvchi shaxsini shakllantirish, uni ta'lim va tarbiyaning samarali shakl va metodlari, vositalari asosida har tomonlama puxta bilimli, yuksak madaniyatli inson qilib kamol toptirishi lozim. Bular o'qituvchining kasbiy yetuklikka erishishi, o'z ishiga ijodiy yondashishida katta rol o'ynaydi.

Ma'lumki, o'qituvchining yuksak pedagogik mahoratni egallashi g'oyat murakkab jarayon bo'lib, pedagogika fanining eng dolzarb muammolardan biridir. O'qituvchi dasturga kiritilgan va darsliklarda berilgan materiallar bilan cheklanmay, o'rganiladigan mavzuga yondosh qo'shimcha materiallarni bilishi, har bir mavzuni o'tishda uning tarbiyaviy ahamiyatini

ham hisobga olishi va o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, unga yetishish yo'llarini belgilashda, ya'ni dars rejasini tuzishda sinfdagi o'quvchilarning bilim-saviyasini, mazkur fanning yutuqlari va yangiliklariga munosabatini, qolaversa, uning o'ziga xos xususiyatlarini, qiziqish va dunyoqarashlarini ham nazarda tutisha lozim.

O'qituvchining har bir darsni o'tkazishini haqiqiy san'atkor biron badiiy obrazni mukammal yaratishga qiyoslash mumkin. Iste'dodli aktyor ham mukammal obraz yaratishi uchun o'z rolini juda ko'p takrorlaydi, uni sahnada namoyish etadi. U har gal shu obrazni harakterining qandaydir noma'lum qirralarini topadi va ularni har safar sahnaga chiqqanda o'sha obrazda mujassamlashtirishga harakat qiladi. Shuning uchun ham aktyor bir rolni qayta-qayta o'ynaganda uni aynan takrorlamaydi, balki tobora mukammalashtirib boradi. Aslida ijodkor o'qituvchi ham mavzuni aynan takrorlamasligi, uning qandaydir jihatlarini boyitib, takomillashtirib borishi lozim. Zero, ijodiy izlanish har bir sohada muvaffaqiyat garovi hisoblanadi.

O'qituvchining kasbiy takomillashishini olimlar ilmiy–metodik jihatdan shartli ravishda quyidagi uch guruhga bo'lish mumkinligini ta'kidlaydilar.

1. Mazmuniy muammolar, ya'ni o'qiyotgan fanning mazmuniy komponentiga tegishli. Ko'pchilik o'qituvchilar uchun mazmuniy muammolar yangi va hali o'rganilmagan ish hisoblanadi. Avvallari o'qituvchi mazmunni belgilashga haqqi yo'q edi, o'qituvchilar o'z fanining o'qitilishga doir muammolarni hal etish jarayonida faol qatnashuvchi va hal qiluvchi fikr sub'ekti hisoblanadi. Ular ta'lim mazmuniga doir bahslarda qatnashdilar va o'z tajribalarida tegishli variantlarni sinab ko'radilar.

2. Kommunikativ muammolar. Bu muammolar gumanizm va demokratik g'oyalarga javob beruvchi yangi muloqot usulining shakllanishi bilan bog'liq. O'qituvchi mehnatning murakkabligi har bir o'quvchi ko'ngliga yo'l topishi va har bir shaxsdagi imkoniyatlarning rivojlanishiga sharoit yarata bilishdadir. Eng muhimi, o'quvchining o'zini shaxs deb tushunishiga o'qituvchi yordam berishi zarur, o'zligini, hayotni, dunyoni idrok etishga ehtiyoj uyg'otish kerak. Dars ta'sirchanligini oshirish uchun bolalar bilan muammoning turli usullarini qo'llab, qiziqtirib, o'yinga o'xshatib, g'aroyib suhbatlashishi lozim bo'ladi. O'qituvchining o'quvchi bilan muloqoti aniq pedagogik vazifani bajarishga yo'naltirishi kerak. Bunda: maqbul, yaxlit, qulay o'quv muhitini, o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi ongli munosabatni tashkil etish ko'zda tutiladi.

3. Uslubiy muammolar. O'qituvchi o'z shaxsiy imkoniyatlarni ko'rsata olishini ta'minlash uchun o'qitish qiziqarli, ilmiy jihatdan asoslangan, ijodiy jarayon bo'lishi kerak.

Ana shu uch muammoni birgalikda yechish jarayonida o'qituvchi yuqori kasbiy mahorat egasiga aylanadi. O'qituvchilarning ish mazmunini o'rganish va tahlil etish natijalaridan kelib

chiqib, o'qituvchining kasbiy takomillashuviga doir quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1) Agar dars shunchaki ish emas – muomala, mashg'ulot emas – san'at, jadvaldagi soatlar emas – hayot deb qaralsa, unda pedagog o'z-o'zidan tez-tez darsga nima uchun borayotganligini so'rab, bolalarning oldiga borayotganligini qalbdan his etishi lozim. 2) Dars berish – bu, inson qalbiga yo'l topish demakdir. Bunda so'zdagi axloqiylik – haqiqat, amaldagi ahloqiylik esa – adolatligini bilmoq zarur. 3) Tajribali pedagoglar darsni qanday qilib olib borishlarini kuzatmoq va o'z darsingizda ularning ijobiy jihatlarini qo'llamoqni o'rganish darkor. 4) O'zingizni va o'z qarashlaringizni nazariy bahslar bilan emas, balki dars bilan tasdiqlang. O'z yo'lingiz bilan borishdan qo'qmang. 5) O'qituvchi butun mahoratini yorqin namoyon qiladigan dars bo'lmaydi. Har birimiz qilayotgan ishimizga qaraganda mukammalroq, kuchliroqmiz va bu – hali ishlatilmagan ikmkoniyatimizdir. 6) Shuni ham unutmaslik kerakki, har bir, hatto, ko'p yillab charxlangan dars ham nimasi bilandir yangi, birinchidir. 7) O'qituvchi ishiga uqituvchilar bergan baho eng mo'tabar kimsalarning fikridan muhimroqligini doimo yodda tutmoq lozim.

2.2. O'qituvchi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishda pedagogik mehnatni me'yorlashtirish

Pedagogik mahorat - bu o'quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni Shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, talabalarda (o'quvchilarda) dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir.

Pedagogik maqsadning o'ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

1. Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, Yani pedagog faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liqdir. Uning mehnati yoshlar Shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yonaltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni taminlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o'tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.

2. Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Bunda pedagogik maqsad o'quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yollarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish o'quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote takidlaganidek: «Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilishi ham o'z-o'zidan kelaveradi».

3. Pedagogik (talim-tarbiya) jarayonida o'quvchi faoliyatini boshqarish Shuning uchun ham murakkabki, pedagog maqsadi doimo o'quvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar o'z faoliyatini mantiqini o'quvchilar ehtiyojlariga

muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to'la anglab, o'z shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarini «o'sib» uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;
- muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondoshishi;
- o'quvchilar qiziqishlarini etiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi.

1. Inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o'zining alohida xususiyatlari, ro'y berayotgan voqealarning idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir.

2. Pedagog doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondoshishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

3. O'quvchilarga pedagogdan tashqari, atrof muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari ijtimoiy hayot ham tasir etadi. Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki tasirlarga va o'quvchilarning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

O'quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy tasir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun pedagog o'zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur.

O'quvchilarni mehnat, muloqot, o'yin, o'qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir mohir pedagog o'zining individual pedagogik tizimiga ega bo'lishi kerak.

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo talim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Shu bilan birga o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham tasir etadi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, характери, o'quvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda bularning talim-tarbiya jarayoniga tasiri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali pedagog, uning xatti-harakati o'quvchilarga qanday tasir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar

kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik mahoratni o'qituvchi shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni o'qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini unutmaslik lozim.

Pedagogik mahorat yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

- pedagog shaxsini insonparvarlik yo'nalishiga ega bo'lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo'nalishlari va ideallarining oliy maqsad-barkamol avlod tarbiyalab etishtirishga yo'naltirilganligi;

- mutaxassislik fanlari, o'qitish metodikasi, pedagogika-psixologiyadan mukammal bilimga ega bo'lish;

- pedagogik qobiliyatga ega bo'lish (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash (yuzidan o'qib olish);

- pedagogik texnikani egallash, yani o'z-o'zini boshqara olish, o'zaro tasir etish va hamkorlikda ishlashni uddalash.

Pedagogik mahorat o'ziga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to'g'risidagi, maktab haqidagi, talim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o'qituvchi, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o'z ishining chinakam ustasi bo'la olmaydi, yomon, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andozalarni ishlatishdan nariga o'tmaydi.

Biroq, zamonaviy o'qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi - maxsus bilimlar va malakalar-bolalarni kuzatish, ularning o'sishdagi muhim narsalarni aniqlay olish, ularni rivojlantirish yo'llari va usullarini aniqlash, turli o'zaro tasirini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish malakalari zarur bo'ladi.

Shunday qilib, pedagog-muallim o'z mahoratiga quyidagi bosqichlarda erishishi mumkin:

1. Pedagogika-psixologiya fanlarini chuqur o'rganish;
2. Maxsus fanlar, ularni o'qitilish metodikasini chuqur bilish;
3. Pedagogik amaliyotda faol ishtirok etish va uni samarali o'tkazish;
4. O'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish;
5. O'z ustida mustaqil ishlash, malaka oshirish kurslarida o'qib borish.

Mustaqil O'zbekistonimizda islohotlar tobora keng quloqch yoymoqda Respublikamizning ijtimoiy iqtisodiy kamoloti yosh avlodning sayi-harakatlariga bog'liq ekanligi endi xech kimga sir emas. O'sib kelayotgan yosh avlod bolalarni kelajakda qanday kasb egallashlariga qarab, Respublika kelajagini tasavvur qilsa bo'ladi. Yoshlar faoliyati farovon hayotimiz mezonidir. Xuddi shu ma'noda yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor bermog'imiz lozim. Yoshlar ta'lim-tarbiyasi ota-onaning, o'qituvchi tarbiyasining Vatan oldidagi muqaddas burchlaridir.

O'zining fidokorona mehnati bilan yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash sifatini oshirishga

katta hissa qo‘shayotgan ijodkor o‘qituvchilar soni yil sayi ortib bormoqda. Ayniqsa, islohotlar davrida bunday murabbiylar el-yurtga tanilmoqda. O‘qituvchilarga "Metodist o‘qituvchi" "Katta o‘qituvchi", "O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi", "O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi" unvonlari berilmoqda. Xalqimizning kelajakdagi mustaqil O‘zbekistonning istiqboli ko‘p jihatdan o‘qituvchiga, uning saviyasiga tayyorgarligi, fidoiyligi, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq. Shuning uchun ham mustaqil O‘zbekiston davlatining umumiy ta‘lim maktabida ishlaydigan o‘qituvchi:-pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;

- milliy madaniyat va umuminsoniy qadryatlarini, dunyoviy bilimlarini mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma‘naviy barkamol;
- O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatda taraqqiy etishiga ishonadigan, Vatanparvarlik burchini to‘g‘ri anglagan;
- ixtisosga doir bilimlarini, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek nazariy ilmlarni mukammallagan;
- o‘qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko‘radigan;
- erkin va ijtimoiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo‘lmog‘i darkor.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta‘lim tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odamlarning muhim faoliyatidir. Maktab o‘qituvchilarining faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan.

Ma‘lumki, Prezident Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va senatining qo‘shma majlisida ma‘ruza qildi. Bu o‘z navbatida jamiyatimizning o‘tgan davr mobaynida demokratik o‘zgarishlar, har qaysi fuqaroning tanlash erkinligini ta‘minlash va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lida tom ma’noda qanday ulkan qadamlar qo‘yganini yana bir bor tasdiqladi.

Bo‘lib o‘tgan saylovlar aholimizning yuksak ijtimoiy-siyosiy madaniyatini, uning siyosiy va fuqarolik ong darajasi tobora o‘sib borayotganini saylovchilar mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilish jarayonlarini chuqurlashtirish yo‘lidan izchil ilgarilab borayotganimizni keng qo‘llab-quvvatlayotganini namoyish etdi.

“Iqtisodiy, siyosiy gumanitar sohalarda jadal rivojlanayotgan islohatlarni amalga oshirish uchun hayotiy zarur bo‘lgan qonunlarni kiritish tashabbusi bilan chiqishda va ularni qabul qilishni tezlashtirishda deputatlar korpusining sustkashligi, bu borada yetarlicha faollik ko‘rsatmayotganligi jiddiy kamchilik hisoblanadi”³-deb tanqidiy fikr bildirdi Respublika

³ I. Karimov. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustivor maqsadimiz. “Xalq so‘zi” 28 yanvar. 2010 yil №04.

Prezidenti I. Karimov.

Keyingi besh yil mobaynida Qonunchilik palatasiga taqdim etilgan 297 ta qonun loyihasidan atiga 44 tasi deputatlar tashabbusi bilan kiritilgan.

Bugungi kunda davlat va jamiyat qurilish sohasida mamlakatimiz oldida o'zining miqyosi va qamroviga ko'ra ulkan vazifalar turibdi.

Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi xali beri davom etayotgan og'ir bir sharoitda iqtisodiyotimizning yanada barqaror rivojlanishini ta'minlash, uni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash borasidagi ishlarni izchil davom ettirishimiz zarur.

Ayni paytda, shuni ham o'zimizga yaqqol tasavvur qilishimiz kerakki, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, odamlarimizning hayot darajasini yanada yuksaltirish, sotsial iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalaridagi boshqa ko'plab vazifalarga ijobiy yechim topish eng muhim bir vazifani muvaffaqiyatli hal etishni talab qiladi.

Bu vazifa, avvalambor, demokratik islohatlarni erkinlashtirish, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidan jadal va samarali ilgarilab borishdan iboratdir.

“Barkamol avlod yili” davlat dasturi mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlari XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli aniq yo'naltirilgan chora tadbirlarni amalga oshirish mavzusida qabul qilindi.

“Yosh avlodni jismonan barkamol etib tarbiyalash, bolalar sportini rivojlantirish sohasida, yoshlarni ayniqsa qishloq qizlarini sport bilan muntazam shug'ullanishiga jalb etish, yuqori malakali ustoz va murabbiylar bilan mustahkamlash ishlarini kuchaytirish, ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ularning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratiladi”-deb ko'rsatiladi “Barkamol avlod yili”-davlat dasturida.⁴

Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyoxvandlik illatlaridan boshqa turli xalokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo'lgan diniy va ekstremistik ta'sirlardan tuban “ommaviy madaniyat” xurushlaridan himoya qilishga doir chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

2.3. Pedagogik mehnat darajasini aniqlash, baholash va o'qituvchida ijodkorlikni tashkil etish

Tarbiya bu shaxsda ijobiy xislat va fazilatlarni namoyon bo'lishidir. Tarbiya juda keng

⁴ “Barkamol avlod yili” dasturi. “Xalq so'zi” №04. Toshkent. 2010 yil.

qamrovli tushuncha bo'lib, uni bir ta'rif bilan ifodalab bo'lmaydi. Uning sirasiga turli xil tomonlama yo'naltirilgan tarbiya, ya'ni estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi, axloqiy tarbiya, siyosiy tarbiya va aqliy tarbiyalar kiradi. Lekin ulardan ko'zlangan maqsad, har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Shaxsning aqliy, axloqiy, xis – tuyg'uli va jismoniy rivojlanishi, qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish, imkoni boricha qulay sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

Tarbiyaviy jarayonni mustahkamlash, yaxshilash, uni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun deyarli barcha qoidalarni, usullarni, g'oyalarni qaytadan ko'rib chiqish, bola shaxsiga e'tiborni qaratish, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarur.

Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko'rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir - biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zaro ta'sir ko'rsatishi ekanligi alohida ta'kidlanadi.

O'qituvchi yoshlarga ta'lim - tarbiya beruvchi insondir. O'qituvchida o'qituvchilik kasbga xos layoqat, qobiliyat bo'lmog'i darkor. Avvalo u bolalarni sevishi, ijodkor, ishbilarmon bo'lishi, ma'naviy barkamol bo'lishi, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, o'qituvchi har bir o'quvchisi ulg'ayib yaxshi odam bo'lishiga chin ko'nglidan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishga ko'maklashadigan asosiy kuch bo'lishi talab etiladi. O'qituvchi o'quvchilarga ta'lim - tarbiya berar ekan, avvalo, uning o'zida tarbiyaviy xislatlar tarkib topgan bo'lishi darkor. O'qituvchi odobli bo'lishi kerak. Uning odobi, madaniyati yuksak bo'lsagina, odamlarga nisbatan mehribon, sahovatli bo'la oladi, uni hamma hurmat qiladi. Buning uchun ochiqko'ngil, qat'iy bo'lishi, o'zini tuta bilishi, bardoshli bo'lishi kerak. Bolalarga nisbatan talabchan bo'lish bilan birga o'z shaxsiga tanqidiy nuqtai nazardan qaray olishi kerak.

O'qituvchi pedagogik etikaning normalarini o'zlashtirib olishi, tajribada qo'llashi, o'zining dunyoqarashi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Fikrlash va his etish, turmushda sinab ko'rish natijasida pedagogik etikaning qoidalari o'qituvchining o'z e'tiqodiga, intilishiga, o'z axloqiy sifatiga aylanadi.

Bu axloqiy e'tiqod o'qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarda, o'quvchilar va boshqa kishilar bilan munosabatlarda, muomalasida, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta'sir o'tkazishda ko'zga tashlanadi. Muallim axloqining natijalari

uning yoshlarga axloqiy ta'sirining samaradorligida namoyon bo'ladi. Shaxs axloqining harakterlaydigan belgilaridan biri ma'suliyatdir. O'qituvchining ma'suliyati - ma'suliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan holda muallimning faoliyati va ta'lim - tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o'z ichiga oladi. O'qituvchi zimmasiga bola shaxsini har tamonlama kamol toptirish ma'suliyati yuklanadi.

Pedagogik odobga ega bo'lgan o'qituvchi o'quvchilar orasida obro' qozanadi. O'qituvchi qanchalik ko'proq obro' qozonsa, ta'lim va tarbiya mohiyatan shunchalik muvaffaqiyatliroq bo'ladi.

O'qituvchining asosiy maqsadi hamma o'quvchilarning muvaffavqiyatli o'qishiga erishishidir. Buning uchun o'quvchilardan o'z ustida ishlashi, o'z - o'zini tarbiyalashi talab etiladi.

O'z - o'zini tarbiyalash o'z faoliyatini tahlil qilishdan va o'z shaxsini takomillashtirishdan boshlanadi. O'quvchilarda shu hislatga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa bo'ladi.

O'z - o'zini tarbiyalash o'quvchilarning o'zini - o'zi idora qilish organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy faollik mavqini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir.

O'quvchilar o'qishda, tarbiyada, dam olishda u - o'zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, o'z - o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

O'z - o'zini tarbiyalash sifatlari bola bunga tayyor bo'lganda, u o'zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda mustaqillik ko'rsata boshlagan vaqtda paydo bo'ladi. O'z - o'zini tarbiyalashda maslahat va ko'rsatmalar berilishi lozim. Bunda o'quvchilarni o'zlariga, xatti - harakatlariga tanqidiy ruhda munosabatda bo'lishga o'rgatish juda muhimdir.

O'z shaxsini, fazilatlarini tahlil qilishga, xatti -harakatlari haqida o'ylashga o'rgatadi. O'z - o'zini nazorat qilish uchun o'quvchi o'zining yurish - turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi, va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O'quvchining qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O'z - o'zini baholash qiyin, lekin o'quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois o'quvchi irodali bo'lishi, o'z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sabablar bo'lishiga intilishi lozim.

O'quvchilar o'z - o'zini tarbiyalash bilan birga o'z ustida ishlab boradi. O'z ustida ishlash asosan o'spirinlikdan boshlanadi. Bunda ularning nazariy tafakkurini shakllantirishda to'garak va fakultativ mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga o'quvchining badiiy asarlarni o'qishi va tushunishi orqali mustaqil fikrlashga, mulohaza yuritishga va munozaraga o'rganib boradi. Unda asta - sekin tabiat va jamiyat haqida o'zining nuqtai nazari,

e'tiqodi, qarashi shakllanadi. Bu esa unda mustaqil o'ylashi, to'g'ri hukm va xulosa chiqarishi, qat'iy qaror qila olish fazilatlarini o'stiradi.

O'quvchilar o'z ustilarida ishlash jarayonida ularning qobiliyati, iste'dodi rivojlanadi. Ularda o'tiladigan darslar, laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlar, referat, konspekt yozish kabi ta'limiy faoliyat turlari o'zlari o'zlashtirishi zarur materiallarni mustaqil holda tushunishga olib keladi.

Bu esa o'z ustida ishlashning muhim omili sanaladi.

Yuqorida keltirgan fikrlarimizning barchasi o'quvchi faoliyati bo'yicha yozilgan. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o'z - o'zini tarbiyalash, o'z ustida ishlash faqatgina o'quvchi faoliyatida emas, balki butun bir shaxs faoliyatida namoyon bo'lishi kerak. Shaxs o'z - o'zini tarbiya etmasa, o'z ustida ishlamasa, u bir joyda qotib turgan toshga o'xshab qoladi.

Agar shaxs izlansa, o'z qobiliyatlari ustida ishlasa, o'zidagi yaxshi fazilatlarini kamol toptirsa, uning obro'si, mavqei ham shu darajada yuksaladi, doimo el nazarida bo'ladi. Uni hech kim uloqtirib yo chetga chiqarib qo'ya olmaydi.

Men aynan o'z soham misolida oladigan bo'lsam, har bir o'qituvchi doimiy ravishda o'z - o'zini tarbiyalashi, o'z ustida ishlashi kerak. U "men allaqachon tarbiyalanganman, menda hamma axloqiy sifatlar tarkib topgan" deb, yoki "men o'z fanimda hamma yutuqlarga erishganman, o'z fanimni chuqur bilaman" deb bir xilda bir joyda qotib tura olmaydi. U doimo intilishda, izlanishda bo'lishi kerak.

Hozirgi paytda maktablarda dars berayotgan o'qituvchilarni kuzatib, ikki xil xulosaga kelasan. Birlari juda faol, intiluvchan, ijodkor o'qituvchilar bo'lsa, ayrimlari esa hech bir intilishi yo'q, doimo bir xilda dars beruvchi o'qituvchilardir. Bularni ko'rib bir quvonsang, bir qo'l siltaging keladi. Axir yosh avlodni ta'lim - tarbiyasi o'qituvchilarga ishonib topshiriladi-ku! Nahotki, ayrim ertangi kun bilan ishi yo'q o'qituvchilar bu mas'uliyatni his etmasalar. O'quvchilarning o'z ustilarida ishlashlari uchun ham o'qituvchi yo'llanmasi, ko'rsatmasi, topshiriqlari muhim rol o'ynaydi.

Shuning uchun o'qituvchi doimo izlanishda bo'lishi, fanga qandaydir bir yangiliklar olib kirishga intilishi, o'zining odobi, kasbiy sifatleri bilan boshqalarga o'rnak bo'lishi darkor. O'z ustida ishlaydigan ijodkor o'qituvchilarning obro' - e'tibori, martabasi ulug' bo'ladi. Ular doimo el nazarida, hurmatida bo'ladi. Xalq hurmatida, e'tiborida bo'lishining o'zi eng katta baxtdir.

Ijtimoiy faol, ijodkor o'qituvchi shaxsining shakllanish dinamikasini o'rganishda umumpedagogik ko'nikmalar, jumladan, talabani kasbiy o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmasining shakllanib borishi quyidagi bosqichlarda kechishi aniqlandi.

Birinchi bosqichda talaba psixologiya va pedagogik turkum fanlarining o'qituvchi

mehnatiga, pedagogik faoliyatning komponentlari va ularning o'zaro aloqadorligi hamda mutanosibligiga doir yangi bilimlar va g'oyalar bilan tanishadi. Pedagogik g'oyalarning milliy mafkuramizning tarkibiy qismida rivojlanishini o'rganadi.

Ikkinchi bosqichda talaba o'z pedagogik faoliyatini tahlil qila olish ko'nikmalarini o'zlashtiradi, buning uchun u pedagogik faoliyatni tahlil qilish metodikasini hisobga olgan holda o'z tajribasini shakllantirib boradi. O'zining kasbiy faoliyatini o'zi baholay boshlaydi, dastlabki fikr-muloxazalarini erkin bildiradi.

Uchinchi bosqichda talaba mahoratli o'qituvchilarning darslarini kuzatadi. "Ochiq dars"larda ishtirok etadi. Kuzatuv natijalarini pedagogik-psixologik tahlil etadi. Yakuniy xulosa chiqarish, tegishli tavsiyalar berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

To'rtinchi bosqichda talaba o'zining ijodiy mehnati evaziga o'zlashtirgan, o'z e'tiqodiga aylanib borayotgan ko'nikmalarni yanada mustahkamlaydi, o'zi kasbiy ahloqiy mulkining qadriga yeta boshlaydi.

Bunday dinamik bosqichlar jarayonida talabada analitik tafakkurining o'sganligi, bo'lajak o'qituvchi sifatida uning ijtimoiy faol munosabatlari mazmunan yanada boyiganligi, o'z kasbining yangi qirralarini egallash sari intilishlarning shakllanganligi aniqlandi.

Prezidentimiz I. A. Karimov statistik ma'lumotlar asosida XXI asr arafasida aholining, asosan yuqori mehnat faolligi bilan ajralib turadigan 30-49 yoshli odamlar tashkil etishi xususida fikrlarni bayon etar ekan, "Odamlar ta'lim darajasining yuqoriligi mehnat salohiyatining o'ziga xos xususiyatidir" deya ta'kidlab, bilimdon, o'z kasbining ustasi bo'lgan fidoiy yoshlar sulolasini tarbiyalash ishining naqadar dolzarbligini uqtiradi.

Mustaqillik ruhiyati, yangicha iqtisodiy hamda ijtimoiy tasavvurlarga ega bo'lgan yoshlar toboro bozor iqtisodiyoti tushunchalari asosida fikrlab, ana shu tushunchalarni kundalik turmushlariga singdirib bormoqdalar. Lekin yangicha munosabatlar psixologiyasi, mehnatga, kasb-korga yangicha qarash o'z-o'zidan, stixiyali tarzda shakllanavermaydi. U, bir tomondan, maqsadga qaratilgan, rejalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining bilvosita mahsuli bo'lsa, ikkinchi tomondan, tabiiy zakovat, zehn, layoqat va oilaviy muhitning bevosita mahsulidir. Demokratik, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida kamol topib kelayotgan yoshlarning aniq maqsadli professional yo'nalish va bilimdonligi nafaqat uning shaxsiy kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotining ham kafolatlaridan biridir. Shuning uchun ham Prezidentimiz o'zining "O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida" risolasida : "Har bir kishining taqdiri ko'p jihatdan uning kasb mahorati, ma'naviy e'tiqodi, jo'shqin o'zgarib borayotgan yangi muhitga moslasha bilish qobiliyati bilan belgilanadi", deb uqtirgan edilar.

Darhaqiqat, davr bizdan shunchaki, universitet yoki boshqa turdagi ta'lim

muassasalarining diplomiga ega bo'lgan kadrlarni emas, balki mustaqil fikrlovchi, o'z xalqi, Vatani manfaatiga yo'lida fidokor, o'z kasbi-kori bo'yicha yuksak professional malakaga ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalashni kutmoqda. Ushbu talab doirasida Namangan davlat universitetida "Mutaxassislar tayyorlash jarayonida kasbiy mahorat asoslarini shakllantirish" deb nomlangan kompleks ilmiy mavzu doirasida qator izlanishlar boshlandiki, unda pedagoglar bilan bir qatorda psixologlar, sotsiologlar hamda konkret mutaxassisliklar bo'yicha o'z kasbining ustalari ishtirok etmoqdalar. Ilmiy izlanishlardan ko'zlangan asosiy maqsad, avvalo mustaqil davlatchilik sharoitida ustivor bo'lgan kasb-xunarlarining ilmiy asoslariga tayangan holda ularga mos keladigan professional malaka, ko'nikmalar va qobiliyatlarning davr ruhiga to'g'ri keladigan xususiyatlarini aniq fan metodlari vositasida o'rganish, professional mahorat rivojlanishining ob'ektiv va sub'ektiv omil va shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda har bir shaxsda zarur kasbiy fazilatlarni tarbiyalash, milliy qadriyatlarimizga tayangan holda amalda ushbu munosabatlar qonuniyatlarini nafaqat konkret xunarmandchilik sohalarida, balki professional tayyorgarlik amalga oshiriladigan o'quv maskanlarida ham joriy etish rejalarini amalga oshirishdan iboratdir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda demokratik davlat qurish manfaatlariga mos keladigan barcha kasb-xunar turlariga, xususan, malakali iqtisodchi, huquqshunos, kompyuter texnikasi programmistlari, sotsiolog, psixolog, mohir tibbiyot xodimi kabi qator kasb egalariga ehtiyoj kun sayin ko'payib bormoqda va tabiiyki, jamiyatning ular professional zakovati va qobiliyatiga nisbatan qo'yayotgan talablari ham ortib bormoqda. Barcha turdagi hunar egalaridan tashabbuskorlik, omilkorlik, mahorat, raqobatbardoshlik, bilimdonlik, davr talablariga moslasha olish kabi umumiy sifatlar talab qilinmoqda. Shu o'rinda mahorat, aniqrog'i, professional mahorat tushunchasini ilmiy jihatdan asoslash maqsadga muvofiqdir.

Chunki gap shaxsning biror bir muayyan faoliyat sohasidagi yutuqlari yoki kamchiligi haqida ketganda, "qobiliyat", "iste'dod", "mahorat", "ustalik" tushunchalari ishlatiladi. Ma'lumki, qobiliyat-bu shunday psixologik imkoniyatlar majmuiki, muayyan sharoitda unda shaxsdagi bilim, malaka va ko'nikmalar amalga oshadi va muvaffaqiyatli uyg'unlashadi.

Shuning uchun ham bilimli odamni har doim ham qobiliyatli deb bo'lmaydi, ya'ni shaxsda bilim, malaka va ko'nikmalarining mavjudligi hali uning qobiliyati darajasi haqida fikr yuritishga imkon bermaydi. Muayyan ish-faoliyat sharoitida ro'yobga chiqib, namoyon bo'ladigan bilim, ko'nikma va malaka-qobiliyatlarning ko'rsatkichidir. Iste'dod esa mahoratning dastlabki sharti bo'lib, u ham hali mahoratning aslo o'zi emas. Ya'ni muayyan hunar yoki professional ish sohasida mohir-usta-mahoratli bo'lib yetishish shaxsda u yoki bu mehnat sohasida surunkali ijodiy ko'tarinkilikning bo'lishi va bu holat shaxsiy fazilatlarda ifodalanishi zarurdir. Ijodiy ko'tarinkilik o'z navbatida diqqatning kuchli barqarorligi, ilmiy ijodiy va texnik

ijodkorlikda qandaydir muhim muammoni hal etishda xotira kuchi, mazmuni, tasavvurlar maydoni, farosat va tafakkur jarayonlarining to'liq safarbar etilishini toqozo etadi.

Psixologik tadqiqotlarda aniqlanishicha, agar iste'dod imkoniyat bo'lsa, u holda mahorat haqiqatga aylangan imkoniyatdir. Mahoratli shaxs yoki kasb egasi odatda nimani qilish va qanday qilish kerak degan muammoni bir vaqtning o'zida muvaffaqiyatli hal etadi. Shundan kelib chiqib, biz har bir bo'lajak kasb egasida shakllanishi zarur bo'lgan motivlardan ma'lum sohada o'zining ijobiy, afzal tomonlarini namoyish etish istagi, o'zi ishining mahoratli ustasi bo'lishga intilish, kasbidan faxrlanish va qoniqish hissining mavjudligi, hamda ushbu kasbning o'ziga shaxsan va jamiyatga qanday naf keltirishini aniq tasavvur qilish ekanligini aniqladik, ya'ni oliygox talabalarini kelajak kasbiga tayyorlash dasturining muhim markaziy bo'lagi-ularni professional mahorat sari intiltirish motivlarini va unga zarur professional sifatlarni tarbiyalashdir.

Masalan, pedagogik mahorat asoslari shaxsning o'z predmetini chuqur va mukammal bilishi bilan bir qatorda, uni didaktik nuqtai nazardan har bir o'quvchi ongiga yetkaza olish va bolalarga cheksiz muhabbat, ular individual rivojlanish qonunlarini aniq bilishlariga tayansa, shifokorlik mahorati o'z sohasidagi chuqur bilimlar bilan bir qatorda konstruktiv, kommunikativ hamda professional fantaziyaning ob'ektiv sifatlariga, mantiqqa hamda shaxsning insoniy fazilatlari majmuining mavjudligi-rahm-shafqat, mehribonlik, xolisona yordamga tayyorlik, empatiyaning kuchi va hokozoga asoslanadi.

Professional mahorat mutaxassis tajribasida birdaniga shakllanadigan qobiliyatlar darajasi bo'lmay, uning o'z shakllanish va taraqqiyot bosqichlari mavjuddir. Biz uning, asosan to'rt bosqichli taraqqiyot jarayonini o'rgandik.

1-bosqich: professional o'z-o'zini aniqlash bosqichi deb atalaib, u o'rta maktablarning yuqori sinflari-o'spirinlik yoshiga to'g'ri keladi. Bu bosqichda asosan bo'lg'usi kasb egasi o'zi qiziqqan hunarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini, o'z qobiliyatlari hamda o'zini o'rab turgan ijtimoiy muhit doirasidagi ahamiyatini anglagan holda, kasbiga oid tushuncha va tasavvurlarga ega bo'ladi. Aynan shu tasavvurlar va hayotiy yo'nalganlik bolani bo'lg'usi kkasbiga tayyorgarlashning asosiy mezoni va motivlari rolini o'ynaydi. Taraqqiyotning shu davrida yoshlardagi o'zidagi afzal sifat-imkoniyatlarni namoyon qilishga intilishlarni professional yo'nalganlikning motividir, deb hisoblash mumkin.

2-bosqich: professional ta'lim va tarbiya bosqichi. U maqsadli dasturlar doirasida maxsus sharoitlarda turli toifadagi o'quv maskanlarida mahoratli ustoz-tarbiyachilar (ustalar) ta'sirida amalga oshiriladi.

3-bosqich: kasbga professional moslashuv bo'lib, unda kasb-hunar haqidagi tasavvur va tushunchalar aktuallashadi, ya'ni yosh mutaxassis o'zi tanlagan kasbi sir-asrorlarini amaliyotda

bevosita sinaydi. Bu bosqich mahoratining shakllanishida muhim bo‘lib, unda ham tashqi tayziq va ustozlarning roli va ta’siri kuchli bo‘ladi.

4-bosqich: professional kamolot bosqichi bo‘lib, unda shaxsning o‘zi, o‘zi orttirayotgan hayotiy tajriba muhim rol o‘ynaydi. Bu bosqichda tabiiy layoqat, kasbiy intilish, malaka va ko‘nikmalarning aynan kasb maqsadlariga mosligi ahamiyatga ega bo‘ladi.

O‘z kasbining ustasi bo‘lishga intilish motivining borligi professional mahoratning muhim o‘zagi bo‘lib, bu motiv shaxs kasbiy yo‘nalishini oydinlashtiradi, zarur sifatlarining shakllanishiga sabab bo‘ladi, professional bilimlarning takomillashuvi, ularning iste’dod darajasiga ko‘tarilib, kasbining turli qirralarini ham intellektual, ham intuitiv (professional fantaziya) tarzda o‘zgalarga ham o‘rgatish malakasini hosil qiladi. Shulardan kelib chiqib, biz o‘z tadqiqotlarimizning dastlabki bosqichida mahorat shakllanishining uchinchi hamda to‘rtinchi bosqichlariga xos xususiyatlarni empirik yo‘l bilan o‘rgandik.

Biz suxbat va so‘rovlar natijalarini umumlashtirib, mahoratli mutaxassislariga xos psixologik fazilatlarining umumiy jihatlarini aniqladik.: bu – aql intellektning egiluvchanligi, tasavvur va fantaziya maydonining mavjudligi va sarmazmunligi, iroda kuchi, qiziqishlarning aniq yo‘nalganligi, ziyraklik, o‘zini ishga safarbar qila olish qobiliyati, ishga mas’ul va jiddiy munosabat, o‘z-o‘zini intizomga chaqira olish kabilardir. Ayniqsa, kasbiy mahorat tafakkur va aql sifatlarining o‘ziga xos rivojlanganligini talab qiladi, u fikrlash jarayonining tezligi, ma’lum tizimda ekanligi, tahlil va umumlashtirish imkoniyatlarining ko‘pligi, hayot-faoliyatning mahsuldorligi bilan harakterlanadi.

Ilmiy-nazariy tahlillar hamda o‘tkazilgan dastlabki tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

1. Kasb mahorati murakkab va keng qamrovli tushuncha bo‘lib, uning tarkibiga barcha mutaxassisliklar uchun umumiy hisoblangan va har bir ixtisoslik uchungina xos bo‘lgan xususiy sifatlar majmuasi kiradi. Kasbiy mahoratni shakllantirishning har bir bosqichida tarbiyaviy jarayonning ob’ekti va sub’ekti uchun o‘ziga xos talab va kutishlar tizimi mavjud bo‘ladi.

2. Kasb mahoratining shakllanish va rivojlanish jarayoni uzluksiz harakterga ega bo‘lib, har bir bosqichning o‘z maqsad, vazifalari, mahoratga erishish yo‘l-yo‘riqlari va usullari mavjud bo‘ladi. Maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya bosqichida professional mahorat shakllanishining o‘ziga xos usul va shakllari bo‘ladiki, oliy o‘quv yurtlarida talabalarni bo‘lg‘usi kasbga tavyyorlashda o‘qitishning eng samarali usullari qatorida “Ustoz-shogird” munosabatlaridan kelib chiqadigan muloqot tamoyillari ham joriy etilishi lozim;

3. Kasb mahorati shakllanishining o‘z shart-sharoitlari bo‘lib, ularga avvalo: a) moddiy texnika bazasining mavjudligi, o‘qitishning ishlab chiqarish bilan bevosita aloqadorligi, amaliyotlarni tashkil etishning maqbul usullarini tanlash; b) har bir kasb-hunarning

professiogrammasiga ko'ra, har bir mutaxassislikning o'ziga xos modeli asosida ta'lim-tarbiya jarayonini qayta qurish; v) bo'lg'usi mutaxassisning konkret layoqati, iqtidorini hisobga olib, uni o'qitishning dastlabki bosqichlaridayoq ustozlarga biriktirish tajribasini amalda qo'llash; g) har bir shaxsning o'z professional kamoloti darajasiga ko'ra, zarur sifat va intilishlarni shaxsiy manfaatdorlik va jamiyatga fidoyilik motivlari asosida tarbiyalashga erishish, majburiyat hissini professional tayyorgarlikning dastlabki bosqichidayoq tarbiyalash; d) ustoz va shogirdlar munosabatlarini hamkorlik pedagogikasi va psixologiyasi qonuniyatlariga tayangan holda tashkil etish, zarur kommunikativ sifatlarni eng faol usullar (treninglar) yordamida maqsadga muvofiq tarzda shakllantirish; ye) respublika miqyosida kasbiy professiogrammalarning yagona modellarini tuzishga erishish kiradi.

Ijodiy faollik haqida gap ketganda, avvalo, ijodkorlikning mohiyatini anglamoq zarur. Tafakkur va faoliyatning izlanish yakuni bo'lgan yangilikning yaratilishida oldingi tajribalardan ham keng foydalanadi.

Inson oldida tayyor yechilish qoidasiga ega bo'lmagan masala turganda ijodkorlikka ehtiyoj paydo bo'ladi. Ta'lim-tarbiya jarayoni ana shunday xususiyatga egadirki, uni yechish o'qituvchining mahoratiga, masalaga ijodiy yondosha bilishiga bog'liq.

Pedagogikada ikki xil ijodkorlik mavjud: ilmiy ijodkorlik va amaliy ijodkorlik. Ilmiy ijodkorlikda ta'lim va tarbiyada ilgari bo'lmagan qonuniyatlar aniqlanadi, yuqori samarali nazariyalar va metodikalar yaratiladi, ularning rivojlanish istiqbollari belgilanadi.

O'qituvchi amaliy faoliyatda ishlaganda ba'zi bir muammolarni yechishga nostandart yondashadi, o'qitishning yangi usul, yo'l va vositalarini qo'llaydi yoki bor tajribalaridan ijodiy foydalanadi. Amaliy faoliyatdagi ijodkorlikning yuqori darajasi o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashning prinsipial va yangi yuqori samarali majmuasini yaratishdir. Maorif rahbar xodimlari o'qituvchilar faoliyatidagi ana shunday tomonlarni ko'ra bilishlari va har tomonlama rag'batlantirishlari lozim. Shundagina o'qituvchilarning ijodiy ishga yo'llash mumkin. Lekin bunda odatdagi pedagogik ishlardan haqiqiy pedagogik ijodkorlikni farq qila bilish lozim. Pedagogik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar ham ko'pincha o'z ishlarida muvaffaqiyatlarga erishadilar. Ular turli ko'rsatmali qurollar tayyorlaydilar, pedagogik ishini yaxshi tashkil eta oladilar. O'qituvchilarning o'zlashtirish darajalari ham yomon bo'lmaydi. Lekin bu har bir o'qituvchi intilishi, bajarishi lozim bo'lgan odatdagi ish.

Pedagogik ijodkorlik deganda o'qituvchilarni anarxiyaga olib keladigan ortiqcha erkinlikni ham tushunmaslik lozim. O'qituvchilar faoliyatidagi ba'zi bir kamchiliklarni, ya'ni o'z ustida ishlamaslik, metodik g'o'rlik kabilarni ham «ijodkorlikka» qo'ymaslik lozim.

O'qituvchi agar ijodkor bo'lsa, ta'lim-tarbiyaviy ishni tashkil etishda nostandart yo'ldan boradi. Ya'ni u ishni odatdagi ishdan boshqacharoq tashkil qiladi. Pedagogik ijodkorlik haqida

gap ketganda har qanday hayoliy tuzilgan loyihalarni haqiqiy ijodkorlikdan farq qila bilmoq zarur. Chunki bunday xayolparastlar ilmiy asoslarga ega bo'lmagan, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan g'oyalarni ijodiy deb tiqishtirishlari mumkin. O'qituvchi o'z bilimini o'quvchilarga bera bilishi, eng muhim, ularda bilimga qiziqish uyg'otishi, mustaqil o'qish ko'nikmalarini tarbiyalash va bu borada bola faoliyatini tashkil etaishga rahbarlik qilishi kerak. buning uchun o'qituvchi tarbiyashunoslikni, ruhiyatini va o'z fanining metodikasini chuqur egallashi, fanining yangi yutuqlari bilan izchil qurollanib borishi zarur.

Tarbiya mahoratining muhim bir tomoni o'quvchini faollashtirish bilan bog'liq. Chunki ta'lim-tarbiya jarayoni ikki yoqlama jarayon. O'qituvchi ta'lim beradi, o'quvchini uni o'zlashtiradi.

Ba'zi o'qituvchilar o'quvchilar bilan uncha fikrlash va izlanish talab qilmaydigan oson masalalarni hal etish bilan cheklanadilar. Buning oqibatida o'quvchining kamoloti hayot taraqqiyotidan orqada qoladi. Bu tarzda dars bergan o'qituvchi bolani oldinga tomon emas, orqaga tortadi. Tarbiya mohorati bolaning miyasini dalil va raqamlar bilan to'ldirishdan iborat bo'lmay, balki bolaga ularni tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqara bilishni o'rgatishdir. Endilikda butun o'qitish faoliyatimizda bola kamolatini rivojlantirishni tezlatish eng muhim masala bo'lib qoladi.

Mohir o'qituvchi shogirdlarini hayotdan rang-barang hodisa va voqealarni sinchikovlik bilan kuzatadigan, tahlil qila oladigan, ilmiy tadqiqot ishiga kuzatadigan, qiziqadigan bir umr o'zi o'qitgan fanining sehri bilan yashaydigan qilib tarbiyalaydi. Unday mohir ustozlarni shogirdlar bir umr eslaydilar.

Tarbiya mahoratining muhim bir ko'rsatkichi nutq madaniyatidir. So'zda nuqtadonlik, mantiq va mazmundorlik tarbiyachi uchun eng zarur sifatidir. Buning uchun o'qituvchi o'z nutqi ustida muttasil ishlashi, qisqa ifodada ko'p fikr ayta bilish mahoratini egallashi lozim. Chinakam mahoratli o'qituvchining sehrli aytadigan so'z durdonalarini shogirdlari mushtoqlik va ishtiyoq bilan tinglaydi. Bunaqa o'qituvchi bo'lish uchun tinim bilmay izlanish va o'z ustida ishlash zarur.

Dars deb bevosita o'qituvchining rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim mashg'ulotiga aytiladi. Dars - o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir.

Hozir maktablarimizda qo'llanilayotgan sinf – dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarida olib boriladi.

1. Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko'ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo'ladi.

2. Dars mashg'uloti asosan 45 minutga mo'ljallangan bo'lib, qat'iy jadval orqali olib boriladi.

3. Dars bevosita o'qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi.
4. Dars o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma – xil usulda olib boriladi.

Bir soatga mo'ljallangan dastur materiallarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talabalarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashg'ulot turi dars turlari deb yuritiladi. Ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. O'tilayotgan materiallarni mustahkamlash darsi.
3. O'qituvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish va baholash darsi.
4. Takroriy-umumlashtiruvchi va kirish darslari.
5. Aralash dars.

Har bir dars turining ma'lum tuzilish va xususiyatlari bor narsa o'qituvchining o'quv materialini to'g'ri va samarali tushintirishiga, mustahkam esda qoldirishga, takrorlashga va uning o'zlashtirilishini nazorat qilib borishga yordam beradi.

Ma'lum bir dars turi bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda ikkinchi hatto, uchinchi bir dars turining elementlari bo'lishi mumkin. Masalan, maktablarimizda eng ko'p qo'llaniladigan dars turi quyidagicha tuziladi, ya'ni yangi bilimlarni bayon qilish darsi:

- a) yangi bilimlarni bayon qilish;
- b) yangi bilimlarni mustahkamlash;
- s) yangi bilimlar ustida mashq qilish;
- d) yangi bilimlarga bog'liq holda uy vazifalari topshirish.

Demak, dars boshdan-oyoq bir dars turi bilan olib borilmaydi, balki shu darsda yangi bilimni bayon qilish bilan birga uni mustahkamlash, yangi bilimlar ustida mashq o'tkazish, uyga vazifa kabi boshqa elementlarning ham mumkin. Shunga qaramay, darsdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo'lsa, butun didaktik usullar shunga bo'ysundiriladi. Shuning uchun bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi. Dars tuzilishining o'zgarish bilanoq dars olib borish usuli ham o'zgaradi.

Dars tuzilishini biridan ikkinchisiga o'tishi va shu orqali darsning shakli hamda usullarining o'zgarishi dars bosqichi deb yuritiladi.

Masalan, aralash dars turining tuzilishi

- 1) uy vazifalarini so'rash, tekshirib ko'rish;
- 2) yangi materialni bayon qilish;
- 3) yangi materiallarni mustahkamlash;
- 4) uy vazifalari topshirishni o'z ichiga oladi.

Bunda:

- a) uy vazifalarini ko'rish suhbat va masalalar ishlatish yo'li bilan olib borilishi mumkin.

Bu dars tuzilishining 1- qismi, darsning birinchi bosqichi;

b) yangi materiallarni bayon qilish jarayonida o'qituvchi, tushuntirish, hikoya qilish, maktab ma'ruzasi, suhbat kabi usullarda foydalanishi mumkin. Bu - dars tuzilishining ikkinchi qismi;

v) yangi materiallarni mustahkamlash jarayonida suhbat, mashq qildirish, kitob bilan ishlash.

Usullaridan foydalanish mumkin.

Bu – darsning uchinchi bosqichi;

g) Uy vazifalarini topshirish jarayonida tushuntirish. Suhbat usulidan foydalanish mumkin. Bu darsning to'rtinchi bosqichidir. Boshlang'ich va V-IX sinflarda ko'pincha aralash dars, mustahkamlash va bilimi, ko'nikma, malakalarni tekshirish kabi dars turlari qo'llaniladi. Yuqori sinflarda esa ko'pincha yangi bilimlarni bayon qilish, takroriy-umumlashtiruvchi dars turlari qo'llaniladi. Takroriy-umumlashtiruvchi dars, odatda, dasturning ma'lum bir qismi yoki yirik mavzu o'tib bo'lingandan so'ng ishlatiladi.

2. Turli – tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim:

1. Har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lmog'i lozim:

2. Har bir dars mustahkam g'oyaviy-siyosiy yo'nalishga ega bo'lmog'i lozim.

3. Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog'langan bo'lmog'i lozim.

4. Har bir darsda xilma-xil usul, uslub va vositalardan unumli foydalanmoq lozim.

5. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanmoq lozim.

6. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchilarning faolligi birligini ta'minlamog'i lozim.

7. Darsda o'quv materiallarining mazmuniga oid ko'rsatmali qurollar, texnika vositalari va kompyuterdan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.

8. Dars mashg'ulotini butun sinf bilan yoppasiga olib borish bilan har qaysi o'quvchining individual xususiyatlari, ularning mustaqilligini oshirish hisobga olinadi.

9. Har bir darsda mavzuning harakteridan kelib chiqib. Xalqimizning boy pedagogik merosiga murojat qilish va undan foydalanmoq imkoniyatini izlamoq lozim.

Har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Maktablarimizda darsning boshlanishi davrini – darsning tashkiliy daqiqalari deb yuritiladi. Bunda sinfn ing darsga tayyorgarligi kuzatiladi. Ayni paytda o'qituvchi oldida ikki vazifa turadi, ya'ni butun sinfn o'quvchilari diqqatini o'ziga jalb qilish va butun sinfn o'quvchilarini tezlik bilan mashg'ulotga faol kirishishlarini ta'minlash vazifalari turadi.

O'qituvchi har qanday darsga tayyorgarlik ko'ra turib, qo'yilgan o'quv maqsadiga

erishmoq uchun darsning strukturasi haqida bosh qotiradi. Har bir bosqich uchun o'qish ishining tegishli mazmun va metodlarini tanlab oladi. Dars tuzilishining aniqligi yaxshi darsning belgilaridan biridir.

Agar dars yaxshi tayyorlanmagan bo'lsa, tegishli sistemada o'tilmaydi, natijada o'quv maqsadiga erishib bo'lmaydi.

Darsning sifati pedagogning bu darsga qanday tayyorgarlik ko'rganiga bog'liq bo'ladi. Faqat yosh o'qituvchilar emas, balki mazkur fan bo'yicha bir necha bor dars bergan tajribali o'qituvchilar ham darslarga tayyorgarlik ko'rishlari lozim. Har bir yangi dars, hatto, aynan bir mavzu yuzasidan bo'lsa ham, hech qachon oldingisiga o'xshamaydi. Bu bir qator sabablar bilan, avvalo o'quvchilar guruhi, ularning tayyorgarlik darajasi, darsning moddiy jihatdan ta'minlanganligi va hakazolar bilan izohlanadi.

Darslarga dastlabki tayyorgarlik o'quv yili boshlanguncha tugallanadi. U shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'linadi.

1. Kvalifikatsiya harakteristikasini, fan bo'yicha programmani va unga oid izohnomani o'rganish; o'quvchilarning har bir tema bo'yicha egallab olishlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari hajmini aniqlash.

2. Darsliklar, o'quv qo'llanmalar materialini va fan bo'yicha yoki ishchilar tayyorlanayotgan tegishli ishlab chiqarish tarmoqlariga oid nazariy asarlarni o'rganish.

3. Fan, uning ayrim mavzu va masalalari yuzasidan darslarni o'tkazish tajribasini va metodikasiga oid nazariy masalalarni yorituvchi yangi metodik materiallarni, jurnal va to'plamlaridan olingan maqolalarni o'rganish.

4. Jihozlarni tekshirish va tartibga keltirish, ularni remont qilish va yangilash, yetishmayotgan va yangi asoboblarni sotib olish. Jihozlarni saqlash va hisobga olish, ishlatish uchun ularni o'quvchilarga berish tartibini aniqlash.

5. Ko'rsatmali qurollar va o'quv xujjatlarini ko'zdan kechirish, ularning kamchiliklarini bartaraf etish, yetishmayotgan qo'llanmalarni sotib olish yoki tayyorlash.

6. Dastur talablariga mavjud jihozlarga, u yoki bu buyumlarga bo'lgan talablarga, shuningdek didaktik va metodik talablarga muvofiq, o'quv ishlab chiqarish ishlari va buyumlari ro'yxatini ishlab chiqish.

Har bir mavzu bo'yicha darslar sistemasini o'ylab topish va taqvim rejasini tuzish fan bo'yicha o'tkaziladigan darslarga dastlabki tayyorgarlikni yakunlovchi bosqichdir.

So'ngra dars temasi bo'yicha o'quvchilarga ma'lum qilinish kerak bo'lgan material tanlab olinadi, ularga tushuntirilishi lozim bo'lgan yangi atama va tushunchalar belgilab qo'yiladi, ularni qanday yangi mehnat usullari bilan tanishtirish belgilanadi.

Darsning tuzilishini belgilash va ayrim bosqichlarini o'tkazish metodikasi o'ylab qo'yish

keyingi bosqich bo'lib hisoblanadi. Agar o'qituvchi ilgari o'rganilgan material bo'yicha bilimlarni tekshirishga qaror qilgan ekan, u aynan qaysi materialni tekshirishni belgilab olishi, savollarni tuzib chiqishi va yozib qo'yishi, tekshirish uchun o'quvchilardan qaysi birini chaqirishni mo'ljallab qo'yish zarur. Bundan tashqari u yangi materialni bayon qilish metodini, bu bayon qilishning izchilligini aniqlab olishi, darsning mazkur bosqichi uchun kerak bo'ladigan ko'rsatmali qurollarni tayyorlab qo'yish lozim.

O'qituvchi bu ishni tamomlab, darsning rejasini yoki konspektini tuzadi. Reja bor bo'lganda dars ancha aniq o'tadi, o'qituvchi uni ancha xotirjam olib boradi. Bundan tashqari, reja, o'qituvchining haqiqatdan darsga tayyorgarlik ko'rganining dalili bo'lib xizmat qiladi, ya'ni reja, dars ishlanma o'qituvchining dars o'tishda asosiy hujjatdir. Hech bir o'qituvchi dars ishlanmasiz dars o'tishga haqli emas. Konspekt yozilganda yaxshi o'ylab, mantiqan mazmunli, hech qanday xatoliklarsiz bo'lishi kerak.

Mavzuni o'rganish rejasi mavzuning xususiyatlarini, uning o'quv predmeti mundarijasidagi o'rni va ahamiyatini, shuningdek, muayyan sinf o'quvchilarning bilim va rivojlani darajasini hisobga olgan holda tuziladi. O'qituvchi butun mavzuni o'rganishdagi umumiy yo'llarni belgilaydi. Bu yo'llar har bir alohida darsda o'rganilishi kerak bo'lgan masalalarni yaxlit birlikka bog'laydi, darsning tuzilishini, ulardan har birining mavzuni o'rganish umumiy sistemasidagi o'rnini, o'quv ishlari metodlarining tizimini belgilaydi. O'qituvchi mavzuni o'rganish planini ishlab chiqqan, har bir alohida darsning o'rnini, maqsadi va rejasini osongina belgilab oladi.

O'qituvchining darsga tayyorgarligi har bir aniq dars rejasini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Rejani tuzish mavzuni o'rganishda darsning o'rnini belgilashdan boshlanadi, so'ngra uning maqsadi va mazmuni aniqlanadi, o'qitish metodlari ishlab chiqiladi.

Rejada darsning mavzusi va maqsadi yoziladi, takrorlash, yangi materialni bayon qilish qanday o'tkazilish qanday metodlardan foydalanishni ko'rsatiladi. O'qituvchi bayon etishning asosiy yo'nalishini ko'rsatadi, dalillar va misollarni yozib oladi, materialni mustahkamlash qanday o'tkazishni, kimdan so'rash kerakligini yozib qo'yadi. Reja oxirida uyga beriladigan topshiriq yoziladi.

Kam butlangan maktablarda navbatma-navbat ish olib borganligi tufayli ko'pgina ish vaqti bekorga ketadi. Ko'pchilik vaqti ketadi o'qituvchilar bunga ko'nikib qolganlar. O'qituvchi bir sinfga yo'l-yo'riq berayotganida boshqa sinf o'quvchilari bekor o'tiradilar.

O'quv reja tuzayotganida vaqtini vaqtini ish turlari bo'yicha hisoblab chiqishi muhimdir. Rejada sinflardan biri o'qituvchi bilan, boshqasi esa mustaqil ravishda shug'ullanadigan dars bosqichlari belgilangan bo'lsagina, vaqtini aniq hisoblab chiqish mumkin. Shuning uchun dars rejasini tuzish vaqtida avval har bir sinf o'qituvchi bilan yoki mustaqil ravishda qachon va

qancha vaqt davomida shug'ullanishini aniq belgilab olish ma'qulroqdir. Mustaqil mashg'ulotlar vaqtini hisobga olgan holda topshiriqlar tanlanadi, O'qituvchi o'z rahbarligi ostida o'tadigan mashg'ulotlar va bolalarning mustaqil ishiga ajratiladigan vaqtni asta-sekin baravarlashtirishga erishsa juda yaxshi bo'ladi.

O'qituvchi bilan ishlash va o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlari uchun vaqtni taqsimlash vaqtida bir qancha vaziyatlarni e'tiborga olish lozim. Quyi sinfda, shuningdek, hajmi va murakkabligi jihatidan katta material o'rganiladigan sinfda o'qituvchi rahbarligi ostida o'tkaziladigan mashg'ulotlar uchun ko'proq vaqt ajratishga to'g'ri keladi. Rejalashtirish vaqtida har bir sinfning tayyorgarlik darajasi va material qay darajada o'zlashtirishganligi hisobga olinadi. O'qituvchilarning mustaqil mashg'ulotlari ham puxta rejalashtiriladi. Darsda vaqtning behuda ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bu topshiriqlarni olindan tayyorlab qo'yish tavsiya etiladi. Topshiriqning aniq va puxta ta'riflanishi, o'quvchilarni mustaqil ishning turli usullarini bajarishga o'rgatish, tez ishlaydigan o'quvchilar uchun rezerv topshiriqlar tayyorlash katta ahamiyatga ega. puxta o'ylab berilmagan topshiriqlar o'quvchilarda faollikni keltirib chiqarmaydi.

Barcha mustaqil topshiriqlar u yoki bu shaklda nazorat qilinishi kerak. nazorat qilib turish formalari xilma – xil bo'lish mumkin.

Ko'chma doskaga yozilgan namuna bo'yicha o'quvchilarning o'z - o'zlarini tekshirishlari, o'quvchilar yoniga borib darsda ish qanday borayotganligini tekshirish, daftarlarni puxta tekshirib chiqish shular jumlasidandir.

Bu xil butlangan maktab sharoitida o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligi ostida ishi bilan ularning mustaqil ishini yaxshiroq birga qo'shib olib borish uchun rejani har bir sinf uchun alohida emas, balki kompleks tarzda tuzish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Har bir o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rar ekan, unga yengil – yelpi, yuzaki qaramasdan, balki uning mas'uliyatini bilan holda sidqidildan yondashish kerak. bu mas'uliyat, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan talab qilinadi. Chunki bolalarga ilk poydevorni boshlang'ich sinf o'qituvchilari quradilar. Berilgan ta'lim, qurilgan poydevor qanchalik mustahkam bo'lsa, kelajakka ishonch shunchalik ortaveradi. Zero, hurmatli Prezidentimiz ta'kidlaganidek, kelajagimiz – yosh avlod qo'lida. Yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash, ilmi, zukko, ma'naviyatli qilib yetishtirish esa o'qituvchi va murabbiylar qo'lidadir. Shunday ekan, har bir o'qituvchi ilm berar ekan, avvalo bolalarni sevib, ularni kelajakka ishonch ruhida tarbiyalab, o'z fanini chuqur bilgan holda sidqidildan dars o'tmog'i kerak.

Hozirgi zamon yoshlarining mehnatga munosabatlari xususida Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "...kishilarimiz foydali tadbirkorlik sohasida tashabbus, omilkorlik, mahorat ko'rsatmoqdalar. Tobora ko'proq yoshlarimiz musobaqa va raqobatga asoslangan erkin

mehnatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy bilimlarga va ishlab chiqarish mahoratini egallashga intilmoqdalar". Bu so'zlardan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, ularni bo'lg'usi kasbining mohir ustasi qilib tayyorlashning ilmiy-nazariy dasturiga ega bo'lgan holda, uni amalda qo'llash-yoshlar siyosatining bugungi kundagi muhim uzviy qismi, deb qaralishi zarur va undan kelib chiqqan holda mutaxassislar tayyorlash jarayonining mazmuni va texnologiyasiga tegishli o'zgartirishlar kiritilishi kerak.

UMUMIY XULOSALAR

Olib borilgan tadqiqot ishlari va natijalariga tayangan holda quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. O'qituvchi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish mazmuni ancha keng tushuncha bo'lib, unga avvalo, xodimlarning malakasi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularni to'g'ri tanlash va joy-joyiga qo'yish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish qo'llanilayotgan usullar tizimini uzluksiz takomillashtirish va ta'lim-tarbiya jarayoniga texnika vositalarini joriy etish masalalari kiradi. O'qituvchilar mehnat faoliyati jarayonida o'z ishlarining chinakam ustalariga aylanadilar. Sog'lom fikr yurituvchi har bir kishi mahoratli tarbiyachi bo'la oladi, mahoratga tajriba hamda fikr yuritish orqali erishiladi.

2. Pedagoglik alohida kasb bo'lib, u har bir mutaxassisdan yuksak darajada g'oyaviy-siyosiy yetuklikni intellektual barkamollikni va ensiklopedik ma'lumotlilikni, insoniy aql va ezgulik urug'ini tarqatuvchi dehqon va bog'bon sifatida olijanob shaxs bo'lishini taqozo etadi. Hozirgi zamon pedagogikasi fani har bir o'qituvchidan kasbiy jihatdan yetuk bo'lishni va pedagogik mahorat va qobiliyatni, mahoratni to'liq egallagan bo'lishlikni talab etmoqda.

3. O'qituvchining pedagogik mahoratini doimiy oshirib borish va uni rivojlantirishda maktabdagi metod birlashmalar hamda kabinetlarning xizmati katta. Metod birlashmalarda o'qituvchilar fikr almashadilar: o'zaro kuzatilgan darslar muhokama qilinadi. Yosh va tajribasiz o'qituvchilarga maslahatlar uyushtiriladi, ilg'or tajribalarni keng ommalashtiradilar.

4. Pedagogik ijodkorlik manbai - bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondoshishni, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishni tushunamiz.

5. Fan-texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishi va nihoyat o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi avvalo tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy tadqiqot ishlari olib borishi davomida omillarni to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan juda muhim fazilatlarni egallaydi.

6. Hozirgi kundagi asosiy vazifa tayyorlanayotgan mutaxassislarning sifatini yanada yaxshilashga, ularni ijodiy fikrlovchi va tashabbuskor mutaxassislar qilib tarbiyalashga erishishdan iboratdir. Bu o'z navbatida o'quvchilarga bilim berishni tubdan yaxshilash va ularga zamon talablari darajasida tarbiya berishni talab qiladi.

7. Bugungi tezkor, ayni paytda globallashtirish davrida o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda

tashkil etish dolzarb ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, o'qituvchi shaxs sifatida pedagogik faoliyatning sub'ekti, ob'ekti, ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi ko'rinishida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy rivojlanish va pedagogik-psixologik hamda mutaxassislik yo'nalishi tayyorgarligi jarayonida shakllanadi. O'zining mustaqil hayoti va kasbiy sifatlar uyg'unligi qaror topadi. Ijtimoiy faollik shaxsiy va kasbiy xususiyat ko'rinishida o'qituvchining dunyoqarashi hamda pedagogik mahoratida o'z e'tirofini topadi.

8. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, uzluksiz ta'lim tizimida, ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda akademik litsey, kasb-xunar kollejlari o'quvchilarining ijtimoiy faolligi, ijodkorligi bugungi tezkor davrda alohida pedagogik tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan. Shunga muvofiq, oliy ta'limda talabaning ijtimoiy faolligini, ijodkorligini o'rganish qiyin kechib, ko'plab muammolarning kelib chiqishi tabiiydir. Ayniqsa, ijtimoiy faollikning harakteri hamda uni aniqlash muammolari murakkab bo'lib, talabalarda yosh, jins va ijtimoiy adaptatsiya jarayoni hamda bugungi tezkor davr xususiyatlari bilan bog'liqligini ko'rsatdi.

9. Bugungi davrning tezkorligi aynan ijtimoiy faollik va ijodkorlikni talab etadi. Bo'lajak o'qituvchining ijtimoiy faolligi, ijodkorligi kelgusida o'quvchilarni befarqlik, beg'amlik, ish yoqmaslik kabi illatlardan holis bo'lishga olib keladi. Hayotni sevish unga befarq qaramaslik his-tuyg'ularini shakllantiradi. Insoniylik qadr-qimmatini oshiradi. Ana shunday o'qituvchi kadrlarni tayyorlash oliy pedagogik ta'limni takomillashtirishning muhim yo'nalishidir.

10. "O'qituvchi-o'quvchi" munosabatida o'quvchini tinglash, uni to'g'ri muloqotga choralash o'qituvchining kasb odobini belgilaydi. Chunki shu jarayonda o'quvchi o'zining o'y-fikrini to'liq yuzaga chiqara olish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa suhbatdosh haqida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fikrlarning shakllanishiga olib keladi. Bir-birini tinglash odobi nutq egasini ham va o'z navbatida, tinglovchini ham ruhlantiradi, ilhom bag'ishlaydi, yangi fikr va g'oyalarning tug'ilishiga sharoit yaratadi.

TAVSIYALAR

1. Bugungi tezkor va globallashtirish davrining talablaridan kelib chiqib, uzluksiz pedagogik ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri ijtimoiy faollik, ijodkorlik tizimini insonparvarlik, mehr-muruvvat va do'stona munosabatlar asosida qaror toptirishga qaratilmog'i o'rinlidir. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimida ijtimoiy faol, ijodkor o'qituvchi shaxsini tarbiyalash, pedagogika fanlari mazmunini qayta ko'rib chiqish va uni bugungi talablar darajasida muvofiqlashtirishni toqozo etadi. Pedagogik turkum fanlar mazmuni esa bo'lajak ijodkor o'qituvchi shaxsining ijtimoiy faolligini ta'min etishga qaratilmog'i va bu jarayonda "O'qituvchi-o'quvchi" muloqoti "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlari doirasida amalga oshirilmog'i lozim.

2. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda samaradorlikka erishish maqsadida o'qituvchilar, pedagoglar uchun metodik ta'minot yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

3. Har doim o'quvchi va talaba o'z jamoasida yoki o'zi mansub bo'lgan guruhda o'z o'rnini topishga intiladi. Shunga ko'ra o'zining qobiliyati, bilimi, obro'-e'tiboriga qarab munosabatga kirishishni istaydi. Ana shunday munosabatlarning buzulishi yoki bo'lmasligi shaxsning ijtimoiy faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bo'lajak ijodkor o'qituvchi shaxsida ijtimoiy mas'ullik tuyg'usini shakllantiruvchi pedagogik va psixologik omillar rivojiga alohida e'tibor berish zarur.

4. Ijtimoiy faol, ijodkor pedagoglar tayyorlash tizimini nazariy-metodik jihatdan takomillashtirish maqsadida oliy o'quv yurtlarining joylarda viloyat, shahar va tuman xalq ta'limi hamda o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi boshqarmalari bilan o'zaro hamkorligini ilmiy asosda yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

MUNDARIJA

Kirish-----	3-6
1 bob. O‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishning ahamiyati-----	7
1.1. O‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari-----	7-19
1.2. O‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishga qo‘yiladigan talablar--	19-28
2 bob. O‘qituvchi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishning mazmuni va pedagogik shart-sharoitlari -----	29
2.1. O‘qituvchi faoliyati va mehnatini ilmiy asosda tashkil etishning mazmuni, qoidalari hamda usullari-----	29-48
2.2. O‘qituvchi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishda pedagogik mehnatni me‘yorlashtirish-----	48-54
2.3. Pedagogik mehnat darajasini aniqlash, baholash va o‘qituvchida ijodkorlikni tashkil etish----	54-73
Umumiy xulosalar va tavsiyalar-----	74-77
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati-----	79-80

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997 yil.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997 yil.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. – Toshkent, O'zbekiston, 1992.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
5. “Barkamol avlod yili” dasturi. “Xalq so'zi” №04. Toshkent. 2010 yil. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma'naviyat”, 2008. -176 b.
6. Karimov I. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustivor maqsadimiz. “Xalq so'zi” 28 yanvar. 2010 yil №04.
7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
8. Prezident I.A.Karimovning “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi Halqaro konferensiyada so'zlagan nutqidan. – Toshkent, 2012 yil, 17 fevral.
9. Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent, O'qituvchi, 1993.
10. Almetov N.Sh. Pedagogika //O'quv qo'llanma. – Almaati, 2001.
11. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish,- T.: O'qituvchi, 1991.
12. Jumaev A. O'qituvchi shaxsi shakllanishining ayrim masalalari. //Pedagogik ta'lim. Toshkent. 2007 y.
13. Jumaev A. Ijtimoiy faol o'qituvchi shaxsi shakllanishining pedagogik-psixologik omillari. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2008 y.
14. Jumaev A. O'quvchilarning kasb tanlash motivlari. O'quvchilarni uzluksiz kasb-hunarga yo'naltirishning istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent. Xalq ta'limi vazirligi. 2008 y.
15. Ziyomammedov B. Ma'rifat asoslari. – Toshkent, Chinor ENK, 1998.
16. Kaykovus, Unsurulmaoliy. Qobusnoma. – Toshkent, O'qituvchi, 1986.
17. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent, O'qituvchi, 2001.
18. Mahkamov U. O'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. – Toshkent, O'zbekiston, 1993.
19. Mahmudov R. Huquq va madaniyat /Z.S.Zaripov tahriri ostida. – Toshkent, O'zbekiston, 1993.
20. Muxammadiev A. Tabiat muhofazasi va ekologiya. –T.: O'qituvchi, 1986.
21. Navoiy, Alisher. Asarlar. O'n besh tomlik. O'n uchinchi jild. – Toshkent, /ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1966.
22. Pedagogika /A.Q.Munavvarovanning umumiy tahriri ostida. - Toshkent, O'qituvchi, 1993.
23. Podlasiy I.P. Pedagogika. V 2 kn. Kn. 2. – Moskva, Vlado, 1999.
24. Pedagogika. Jismoniy tarbiya institutlari uchun darslik – Toshkent, O'qituvchi, 1990.
25. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi. – Ma'rifat g., 1999 yil, 3 mart.
26. Sariqov E., Mamatov M. Iqtisodiyot va biznes asoslari //Umumta'lim maktablarining IX-XI sinflar uchun o'quv qo'll. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
27. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 2-tomlik. –Toshkent, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998.
28. To'xtaev M. va boshq. Iqtisodiy bilim asoslari /Umumta'lim maktablari va kollejlari uchun. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
29. To'xtaev A., Xamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish.- T.: O'qituvchi, 1994.
30. To'xtaev A.S. Ekologiya //O'quvchilar uchun qo'll. – T.: O'qituvchi, Ziyonoshir KShK,

2001.

31. Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. –Toshkent, Ma’naviyat, 1998.
32. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent, Xalq merosi nashriyoti, 1993.
33. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi (pedagogika oliy o‘quv yurtlari va univ-tlar talabalari uchun qo‘ll. – Toshkent, O‘qituvchi, 1996.
34. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – Toshkent, Universitet, 1998.
35. [//www.bilimdon.uz](http://www.bilimdon.uz)
36. [//www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).